

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA O'RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI**



“TASDIQLAYMAN”

Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika
xodimlari malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish Andijon filiali direktori
G.A.Turaxodjayeva “07” 01 2026y.

Bilimlar sohasi: Sog'liqni saqlash

“Yuqumli kasalliklarda hamshiralik ishi”

(sikli bo'yicha malaka oshirish guruhlar uchun)

Ishchi o'quv dasturi
(144 - kredit)

Andijon-2026 y.

Tuzuvchilar:	
N. Qo'chqarova	Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon Filiali o'qituvchisi
D.Gapparova	Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon Filiali o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari
Taqrizchilar:	
Mirzakarimova D.B	ADTI yuqumli kasalliklar mudiri T.F.N Dosent
Islamova Z.Sh	RIDvaKIATMAF vrach dermatovenerolog

Ishchi o'quv dastur Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Andijon Filialining uslubiy kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

“ 6 ” yanvar 2026 yil.

bayonnoma № 1

Uslubiy kengash raisi:



G.I. Sodiqova

Ishchi o'quv dastur Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Andijon Filialining pedagogik kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi.

“ 7 ” yanvar 2026 yil.

bayonnoma № 1

Pedagogik kengash raisi :



G.A. Turaxodjayeva

1.Kirish.

O'zbekiston Respublikasida o'rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish, tibbiyot muassasalarida hamshiralik ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Mazkur o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 4310-son va 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyrug'i, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabrdagi 333-sonli "O'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlarining malaksini oshirish va qayta tayyorlashga qo'yiladigan Davlat talablarini ijrosini ta'minlash to'g'risida"gi buyrug'i ijrosini ta'minlash doirasida yaratilgan. O'quv dasturda o'quv fanining mazmuni, uni o'zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e'tiborga olingan. O'quv dasturi "Yuqumli kasalliklarda hamshiralik ishi" yo'nalishining namunaviy o'quv rejasi asosida tayyorlangan bo'lib, hamshiralarni 144 soat malaka oshirishlari uchun mo'ljallangan. Dastur kasbiy rivojlanish va mutaxassislik fani modullaridan iborat bo'lib, ta'lim olayotganlarning har tomonlama kasbiy, ma'naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimidagi isloxoatlar, tibbiyot sohasining ilm – fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to'g'risida ma'lumotlar kiritilib, tibbiy ta'lim uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo'limlarni ketma-ketligini ta'minlagan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o'quv materiallarini qamrab olgan.

1.1.Maqsad: O'qish natijasida "Yuqumli kasalliklarda hamshiralik ishi" bo'yicha o'rta tibbiyot xodimlarining mavjud kompetensiyalarni takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va kasbiy darajasini oshirish. O'rta tibbiyot xodimlarni har tomonlama yetuk, mutaxassisliklari bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga erishish, shu bilan bir qatorda ularga hamshiralik ishi mohiyati, uning sog'liqni saqlash tizimidagi o'ziga hosligi, normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlash, bemorlarga sifatli hamshiralik yordamini ko'rsatish, bemor hayotiga havf soluvchi xolatlarda shoshilinch yordam ko'rsatish, profilaktik tadbirlar majmuasini amalga oshirish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni chuqurlashtirish va yangilash.

1.2.Vazifalar:

- Umumiy malaka oshirish o'quv jarayonini modulli tibbiy ta'lim tamoyili bo'yicha, zamonaviy, innovatsion, isbotlangan tibbiyotga asoslangan xalqaro ilmiy-amaliy ma'lumotlarni davlat talablariga mos holda tuzilgan o'quv dasturi bo'yicha tizimli tashkillashtirish va davolash profilaktika muassasalarida ko'rsatiladigan

profilaktik, tashhishlash va davolash uchun kerakli amaliy ko'nikmalarni mustaqil qo'llashga tayyorgarlikni shakllantirish;

- sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va me'riy hujjatlarni ish faoliyatida qo'llay olishga o'rgatish;
- zamonaviy klinik protokollar va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida ishlash ko'nikmalarini yangilash va mukammallashtirish;
- etika va deontologiyaning zamonaviy jihatlari bilan tanishtirish;
- aholi o'rtasida to'g'ri, ratsional ovqatlanish, zararli odatlarga qarshi kurashish, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash, o'sib kelayotgan avlodni sog'lomlashtirish tadbirlarini yangilash;
- aholi o'rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, aholi orasida ko'p tarqalgan yuqumli kasalliklarni oldini olish, dispanser kuzatuvini olib borishni tashkillashtirishni takomillashtirish;
- hamshiralik jarayoni orqali tibbiyot hamshirasi amaliyot standartlarini, hamshiraning kasallik tarixi va hamshiralik tashxisi, shuningdek hamshiralik parvarishini amalga oshirish ko'nikmasini rivojlantirish;
- aholi o'rtasida va yuqumli kasalliklar shifoxonalarida yuqumli kasalliklarning oldini olish va kamaytirishga qaratilgan profilaktik hamda epidemiyaga qarshi chora - tadbirlar o'tkazish ko'nikmasini rivojlantirish;
- aholi o'rtasida uchraydigan yuqumli kasalliklar bilan og'rigan bemorlarni parvarish qilishning o'ziga xos xususiyatlari haqida bilimlarini yangilash;
- aholi o'rtasida uchraydigan ichak infeksiyalarida hamshiralik yordamini ko'rsatish ko'nikmalarini yangilash;
- aholi o'rtasida nafas yo'llari yuqumli kasalliklari kechishining xususiyatlari, bemorlar parvarishi va ularning oldini olish choralari haqida yangi ma'lumotlar berish;
- qon infeksiyalari bilan og'rigan bemorlar parvarishining xususiyatlarini o'rgatish hamda OIV/OITS kasalliklarining oldini olish va ularning yuzaga kelishini kamaytirishga qaratilgan chora tadbirlar o'tkazish borasida yangi ma'lumotlar berish;
- avariya holatlari yuzaga kelganda hamshira taktikasi haqida ko'nikmalarini yangilash;
- aholi o'rtasida uchraydigan parazitar kasalliklari kechishining o'ziga xos xususiyatlari, klinik belgilari, yangi tashhisot usullari, bemorlar parvarishi va kasalliklarni oldini olish choralari borasidagi bilimlarini yangilash;
- aholi o'rtasida uchraydigan tashqi qoplam infeksiyalari kechishining o'ziga xos xususiyatlari, klinik belgilari, yangi tashhisot usullari, bemorlar parvarishi va kasalliklarni oldini olish choralari borasidagi bilimlarini yangilash;
- aholi o'rtasida uchraydigan surunkali virusli hepatitlarda hamshiralik parvarishi va dispanser nazoratini to'g'ri yo'lga qo'yishni takomillashtirish, hamda ularning og'ir asoratlari yuzaga kelishini oldini olish to'g'risidagi bilimlarini yangilash;
- karantin va o'ta xavfli yuqumli kasalliklar, jumladan gemorragik isitmalar, maymun chechagi haqida yangi ma'lumotlar berish;

- favqulotda vaziyatlar, kechiktirib bo'lmaydigan holatlarini tahlil qila olish va kechiktirib bo'lmaydigan yordamni ko'rsatish qobiliyatini yangilash.

1.3. Ta'lim oluvchilar toifasi (kontingenti):

Ishchi o'quv dasturi davolash profilaktika muassasalari yuqumli kasalliklar bo'limlarida faoliyat olib borayotgan hamshiralarning malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo'riqnomalariga muvofiq, mutaxassisligini *tasdiqlovchi hujjati* bo'lgan tibbiyot hamshiralari uchun mo'ljallangan.

1.4. Ishchi o'quv dasturni o'zlashtira olish uchun zarur bo'lgan tinglovchi kompetensiyasi:

- tibbiy etika va deontologiyani amalda qo'llay oladigan, notiqlik san'atining asoslarini tushungan yetuk mutaxassis bo'lishi;
- hamshiraning huquqiy me'yorlarini, bemor huquqlari, roziligi, rad etishi, bolalarning yoshiga nisbatan xususiyatlarini bilishi;
- tibbiyot psixologiyasi va shaxslararo muloqot ko'nikmalarini amalga oshirish;
- yuqumli kasalliklar bilan og'riq bemorlarni qabul qilishdagi tibbiy hujjatlarni rasmiylashtira olishi;
- yuqumli kasalliklarda bemorlarga hamshiralik yordamini ko'rsata olishi;
- ichak infeksiyalarining kelib chiqish sabablari, asosiy klinik belgilari, ularning profilaktikasi haqida tushunchalarga ega bo'lishi;
- nafas yo'llari yuqumli kasalliklari, kelib chiqish sabablari va ularning oldini olish choralari haqida bilishi;
- qon infeksiyalari va avariya holatlari haqida tushunchaga ega bo'lishi;
- parazitlar kasalliklarning tashxisot usullarini, kasalliklarning oldini olish chora-tadbirlarini bilishi;
- o'tkir va surunkali virusli gepatitlar, tashxisot usullarini, ularning asoratlari, kasalliklarning oldini olish chora- tadbirlarini bilishi;
- tashqi qoplam infeksiyalari kelib chiqish sabablari va ularning oldini olish choralari haqida bilishi;
- karantin va o'ta xavfli infeksiyalar, ularning oldini olish choralari, himoya kiyimlaridan foydalanish qoidalarini bilishi;
- mutaxassisligi bo'yicha chuqur va yangilangan to'liq nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lgan, uzluksiz o'z malakasini oshirishga tayyor bo'lgan, o'zgaruvchan sharoitlarga tez moslasha oladigan bo'lishi.

1.5. Dasturning dolzarbligi: Ishchi o'quv dasturining dolzarbligi amaliy tibbiy yordamning real ehtiyojlaridan kelib chiqib, amaldagi standart va bayonnomalar, dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarida kasalliklar diagnostikasi, zamonaviy davolash va profilaktika choralari qo'llash, O'zbekiston Respublikasi SSVning "Aholi o'rtasida o'ta xavfli zoonoz yuqumli kasalliklarga qarshi olib borilayotgan chora-tadbirlarni takomillashtirish to'g'risidagi", "Virusli gepatitlar tashhisoti, davosi va profilaktikasi bo'yicha chora- tadbirlarni yanada takomillashtirish to'g'risida" buyruqlari, *O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining "Tibbiyot xodimlari milliy klinik protokollar asosida bemorlarni*

tashxislash va davolash buyicha umumiy malaka oshirish kursni tashkil etish to'g'risida” № 257 buyrug'ining 8 va 9- modullar mazmun mohiyati, shuningdek tibbiyot huquqi bo'yicha amaldagi qonunchiligi, hamda zamonaviy ilm-fan yutuqlariga muvofiqligi, tibbiyot fani va amaliyotidagi mavjud vaziyat o'zgarishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

1.6. Dastur hajmi: 144 kredit (kuniga 6 kredit, haftada 36 kredit).

1.7. O'qish shakli:

- kunduzgi - o'qish ishdan ajralgan holda
- on/offline, masofaviy - o'qish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda

1.8. Mashg'ulotlarni o'tish tartibi: Mashg'ulotlar “Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to'g'risidagi” O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyrug'i va markazning ichki tartib-qoidolari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Mashg'ulotlar 8³⁰ da boshlanib, 13¹⁰ da tamom bo'ladi. Tushlik - 30 daqiqa.

1.9. O'qish tugagandan so'ng beriladigan xujjat: o'quv kursni to'liq o'zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga “Yuqumli kasalliklarda hamshiralik ishi” bo'yicha umumiy malaka oshirganligi haqida Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

2. REJALASHTIRILAYOTGAN TA'LIM NATIJALARI

2.1.Rejalashtirilayotgan ta'lim natijalaridan so'ng takomillashtirilishi (yangilanishi) lozim bo'lgan kasbiy kompetensiyalar:

- mutaxassisning fikrlash, tahlil va sintez qilish, jamoa bilan ishlash va uni boshqarish, intizomlilik, boshlagan ishini mantiqiy yakuniga yetkazishga tayyorligini rivojlantiradi;
- o'z-o'zini baholash, tanqidiy tahlil qilish va to'g'ri qarorlarni qabul qilish, ona - bolalar sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash doirasida, aholi orasida tibbiy madaniyat, sog'lom turmush tarzi, kasallik rivojlanishining oldini olish borasida profilaktik sanitariya targ'ibot tadbirlarni olib borish, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarni keng tadbiq etish;
- hamkasblar, kichik tibbiy xodimlar, bemorlar va ularning qarindoshlari bilan bo'lgan muloqotda tibbiy faoliyatning ahloqiy va deontologik jihatlarini amalga oshirish;
- tibbiy xatolarga yo'l qo'yishning oldini olish maqsadida o'z faoliyati natijalarini har doim tahlil qilish va tahlil natijalarini amalga oshirish;
- bemorlarni parvarishlashda qo'llaniladigan yangi tibbiy asboblari va texnik jihozlardan foydalanish;
- kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda turli manbalardan tibbiyotga oid ma'lumotlarni olish;
- kasbiy muammolarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalanish;
- to'g'ri ovqatlanishni targ'ib qilish, zararli odatlarga qarshi kurashish, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish;

- aholi salomatligini mustahkamlash va sog'lomlashtirishda yuqumli kasalliklar profilaktikasini bilish;
- yuqumli kasalliklarni va ularning yashirin turlarini erta aniqlash maqsadida zamonaviy tekshirish usullariga bemor va asbob-anjomlarni tayyorlash;
- shoshilinch holatlarni o'z vaqtida aniqlash va birlamchi tezkor hamshiralik yordamni amalga oshirish ko'nikmalarini yangilaydi;
- yuqumli kasalliklar bilan og'rikan bemor ahvolini baholash va hamshiralik parvarishini amalga oshirish ko'nikmalarini yangilaydi;
- aholi o'rtasida va yuqumli kasalliklar shifoxonalarida fekal-oral, havo-tomchi yo'li, parenteral va qon hamda qon mahsulotlari orqali yuqadigan yuqumli kasalliklarning oldini olish va kamaytirishga qaratilgan profilaktik hamda epidemiyaga qarshi chora –tadbirlar kompleksini o'tkaza olish qobiliyati yangilanadi;
- surunkali virusli hepatitlarning og'ir asoratlari yuzaga kelishini oldini olish chora- tadbirlari to'g'risidagi bilimi yangilanadi;
- tashqi qoplam infeksiyalari kelib chiqish sabablari va ularning oldini olish choralari haqidagi bilimi yangilanadi;
- avariya holatlar yuzaga kelganda hamshira taktikasini amalga oshirish ko'nikmalari takomillashadi;
- karantin va o'ta xavfli infeksiyalarning oldini olish choralari, himoya kiyimlaridan to'g'ri foydalanishni amalga oshiradi;
- zamonaviy tibbiy jihozlarni ishlatish, texnik ishlov berish vazifalari takomillashadi;
- hamshiralik ishini amalga oshirish va tashkil etishning ilg'or shakllari va usullarini ishlab chiqish, ommalashtirish, tajriba almashish hamda boshqa kasbiy faoliyat turlariga moslashtirish qobiliyatiga ega bo'ladi.

3.DASTUR MAZMUNI

3.1“Yuqumli kasalliklarda hamshiralik ishi” kursi ishchi o'quv rejasi

№	Modul va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg'ulotlari		Seminar	Attestatsiya
			Nazariy	Amaliy		
1.0	Kasbiy rivojlantirish moduli	32	16	16		
1.1	Modul: O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.	4	4	-		
1.1.1	Sog'liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlari.	2	2	-		

1.1.2	Tibbiyot sohasida korrupsiyaviy jinoyatlarning yuzaga kelish omillari va javobgarlik masalalari. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid milliy qonunchilik tahlili va davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, oldini olishga doir amalga oshirilayotgan ishlar	2	2	-		
1.2	Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar	6	2	4		
1.2.1	Zamonaviy axborot texnologiyalari va ularning hamshiralik amaliyotidagi o‘rni	2	2	-		
1.2.2	Raqamli hamshiralik amaliyoti - elektron tibbiy yozuvlar, bemor ma’lumotlarini kiritish va tahlil qilish	2	-	2		
1.2.3	Ma'lumotlar xavfsizligi, sun'iy intellekt va yangi tibbiyot platformalari	2	-	2		
1.3	Modul: Infeksion nazorat	6	4	2		
1.3.1	Sanitariya epidemiologiya sohasida qo‘llaniladigan me’yoriy hujjatlar va infeksiion nazorat.	2	2	-		
1.3.2	Karantin va o‘ta xavfli yuqumli kasalliklar profilaktikasi. OIV/OITS xaqida tushuncha.	2	2	-		
1.3.3	Shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi.	2	-	2		
1.4	Modul: Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi	6	2	4		
1.4.1	Aseptika va antiseptika haqida tushuncha. Sterilizatsiya jarayoni. Tibbiy asboblarni sterilizatsiyadan oldingi tozalash qoidalari va usullari.	2	2	-		
1.4.2	Sterilizatsiya turlari, zamonaviy usullari. Gazli, plazmali va ozonli sterilizatsiya usullari.	2	-	2		
1.4.3	Sterilizatsiya xonasida texnika xavfsizligi koidalari.	2	-	2		
1.5	Modul: Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik	10	4	6		
1.5.1	Salomatlik tushunchasi. Salomatlik darajasi ko‘rsatkichlari	2	2	-		
1.5.2	Salomatlik indeksini baholash.	2	-	2		
1.5.3	Sog‘lom turmush tarzi yo‘nalishlari. To‘g‘ri ovqatlanish mezonlari.	2	2			
1.5.4	Jismoniy faollik. Asosiy sog‘lomlashtiruvchi mashg‘ulotlar.	2	-	2		

1.5.5	Jismoniy mashqlarni turli yoshdagi sog'lom odamlarda hamda bemorlarda qo'llash metodikasi.	2	-	2		
2.0	Mutaxassislik fani modullari	104	44	60		
2.1	Modul:Yuqumli kasalliklar faniga kirish va ularda hamshiralik ishi.	6	4	2		
2.1.1	Yuqumli kasalliklarning asosiy xususiyatlari, ularning kelib chiqishida ijtimoiy sharoitlar va muhitning ahamiyati.	2	2	-		
2.1.2	Kasalxona ichida tarqaluvchi yuqumli kasalliklarga qarshi kurash tadbirlari.	2	2	-		
2.1.3	Yuqumli kasalliklar bilan og'rigan bemorlarni davolash va parvarish qilish.	2	-	2		
2.2	Modul:Ichak yuqumli kasalliklarida hamshiralik ishi.	18	6	12		
2.2.1	Aholi o'rtasida uchraydigan ichak infeksiyalari haqida tushuncha. Salmonellyoz, dizenteriya kasalliklarining etiologiyasi, epidemiologiyasi, asosiy klinik belgilari, tashxisoti.	2	2	-		
2.2.2	Salmonellyoz, dizenteriya kasalliklarida bemor parvarishi.	2	-	2		
2.2.3	Salmonellyoz, dizenteriya kasalliklarning umumiy profilaktikasi, infeksiya o'chog'ida o'tkaziladigan chora- tadbirlar.	2	-	2		
2.2.4	Ovqat toksikoinfektsiyasi. Botulizm etiologiyasi, epidemiologiyasi.	2	2	-		
2.2.5	Botulizm kasalligida laborator tekshirish usullari. Bemor parvarishi.	2	-	2		
2.2.6	Botulizm va ovqat toksikoinfektsiyasida bemorga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish.	2	-	2		
2.2.7	Ich terlama, A va B paratiflar, etiologiyasi, epidemiologiyasi, asosiy klinik belgilari, tashxisoti.	2	2	-		
2.2.8	Ich terlama, A va B paratiflarkasalliklarida zamonaviy laborator tekshirish usullari. Bemorni parvarishlash xususiyatlari	2	-	2		
2.2.9	Ich terlama, A va B paratiflar kasalliklarni oldini olish chora-tadbirlari.	2	-	2		
2.3	Modul:Virusli gepatitlarda hamshiralik ishi.	12	4	8		

2.3.1	O'zbekiston Respublikasi SSV ning «Respublikada virusli hepatitlar bilan kurashish choralari yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» buyrug'i mazmuni.	2	2	-		
2.3.2	Enteral virusli hepatitlarda laboratoriya tekshiruvi va bemorlarni parvarishlash	2	-	2		
2.3.3	Virusli hepatitlarda parhez ovqatlantirish.	2	-	2		
2.3.4	Enteral va parenteral virusli hepatitlar, etiologiyasi, epidemiologiyasi, asosiy klinik belgilari, laborator tekshirish usullari	2	2	-		
2.3.5	Parenteral virusli hepatitlarda laborator tekshirish usullari. Bemor parvarishi.	2	-	2		
2.3.6	Surunkali virusli hepatit B,C,D. Virusli hepatitli bemorlar dispanser kuzatuvi. Virusli hepatitlarda epidemiyaga qarshi chora tadbirlar.	2	-	2		
2.4	Modul:Parenteral yo'l orqali yuqadigan yuqumli kasalliklarda hamshiralik ishi.	14	6	8		
2.4.1	Parenteral yo'l orqali yuqadigan yuqumli kasalliklar haqida ma'lumot. Toshmali tif etiologiyasi, epidemiologiyasi, asosiy klinik belgilari	2	2	-		
2.4.2	Toshmali tif kasalligida hamshira parvarishi.	2	-	2		
2.4.3	Bezgak etiologiyasi, qo'zg'atuvchi turlari, kasallik epidemiologiyasi, asosiy klinik belgilari.	2	2	-		
2.4.4	Bezgak kasalligida zamonaviy tekshirish usullari.Bemor parvarishi va kasallikni oldini olish choralari.	2	-	2		
2.4.5	OIV va OITS haqida ma'lumot. Etiologiyasi, epidemiologiyasi, klinik bosqichlari	2	2	-		
2.4.6	Avariya holatlar yuz berganda hamshira taktikasi.	2	-	2		
2.4.7	Qon infeksiyalari bilan og'rgan bemorlarda hamshiralik ishi.	2	-	2		
2.5	Modul:Havo - tomchi yo'li orqali yuqadigan yuqumli kasalliklarda hamshiralik ishi.	24	10	14		
2.5.1	Nafas yo'llari yuqumli kasalliklari. Gripp va boshqa o'tkir respirator virusli infeksiyalar	2	2	-		

2.5.2	Gripp va boshqa o'tkir respirator virusli infeksiyalarda bemorlarni ko'zdan kechirish, bemor muammolarini aniqlash, ma'lumot to'plash va tahlil qilish, parvarish rejasini tuzish va amalga oshirish.	2	-	2		
2.5.3	Gipertermiyada shoshilinch yordam ko'rsatish.	2	-	2		
2.5.4	Koronavirusli va meningokokkli infeksiya etiologiyasi va epidemiologiyasi.	2	2	-		
2.5.5	Qizamiq, qizilcha, skarlatina va suvchechak kasalliklarining etiologiyasi, epidemiologiyasi	2	2	-		
2.5.6	Qizamiq, qizilcha, skarlatina va suvchechak kasalliklarining toshmalar xarakteri, kasalliklarni bir-biridan qiyosiy taqqoslash. Bemor parvarishi.	2	-	2		
2.5.7	Epidemik parotit etiologiyasi, epidemiologiyasi.	2	2	-		
2.5.8	Epidemik parotit bemor parvarishi va kasallikni oldini olish choralari.	2	-	2		
2.5.9	Difteriya va ko'kyo'tal kasalliklarining etiologiyasi epidemiologiyasi, klinik ko'rinishlari.	2	2	-		
2.5.10	Difteriyada bemor parvarishi va kasallikni oldini olish choralari.	2	-	2		
2.5.11	Difteriya kasalliklarga qarshi emlash o'tkazish, ularning muddatlari.	2	-	2		
2.5.12	Ko'kyo'tal klinikasi, bemor parvarishi va kasallikni oldini olish choralari. Kasalliklarga qarshi emlash o'tkazish, ularning muddatlari.	2	-	2		
2.6	Modul:Parazitar kasalliklarda hamshiralik ishi.	6	4	2		
2.6.1	O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2015-yil 25-martdagi "Respublikada parazitar kasalliklar profilaktikasi bo'yicha chora-tadbirlarni takomillashtirish to'g'risida"gi 121-sonli buyrug'i mazmun mohiyati	2	2	-		
2.6.2	Enterobioz, askaridoz, gimenolepidoz, lyamblioz, teniarinxoz, exinokokkoz kasalliklarining asosiy klinik belgilari, kechish hususiyatlari. Laborator tekshiruv usullari.	2	2	-		
2.6.3	Enterobioz, askaridoz, gimenolepidoz, lyamblioz, teniarinxoz, exinokokkoz kasalliklarining Bemor parvarishi, kasalliklarning oldini olish.	2	-	2		

2.7	Modul:Tashqi qoplam infeksiyalarida hamshiralik ishi.	6	2	4		
2.7.1	Tashqi qoplam infeksiyalari haqida ma'lumot. Qoqshol,etiologiyasi va epidemiologiyasi.	2	2	-		
2.7.2	Qoqshol kasalligida laboratoriya texshiruvi, bemorlar parvarish qilish.	2	-	2		
2.7.3	Saramas kasalligida laborator tekshirish usullari. Bemor parvarishi.	2	-	2		
2.8	Modul:Karantin va o'ta xavfli yuqumli kasalliklarda hamshiralik ishi.	12	6	6		
2.8.1	Karantin va o'ta xavfli yuqumli kasalliklar haqida ma'lumot. Karantin infeksiyalar guruhi.	2	2	-		
2.8.2	O'lat va vabo etiologiyasi, epidemiologiyasi, klinik shakllari, asosiy klinik belgilari.	2	2	-		
2.8.3	O'lat va vabo kasalliklarida zamonaviy laborator tashxisot usullari, bemorlar parvarish qilish.	2	-	2		
2.8.4	O'ta xavfli zooantroponoz kasalliklar haqida tushuncha	2	2	-		
2.8.5	Quturish kasalligining umumiy va maxsus profilaktikasi. Hayvon tishlagan jarohatga ishlov berish. Antirabik vaksinatsiya o'tkazish.	2	-	2		
2.8.6	O'ta xavfli zooantroponoz kasalliklarida bemorlar parvarishi	2	-	2		
2.9	Modul:Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko'rsatish.	6	2	4		
2.9.1	Favqulodda vaziyatlar. Tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari, Tibbiy saralash bosqichlari.	2	2	-		
2.9.2	Ommaviy talofat o'chog'ida jabrlanuvchilarni evakuatsiya qilish va birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatish tamoyillari.	2	-	2		
2.9.3	Terminal holatlarda birinchi yordam ko'rsatish.Yurak-o'pka reanimatsiyasi va uni bajarish algoritmi .	2	-	2		
3.0	Tanlov fanlar moduli	4	-	-	4	
	Attestatsiya	4	-	-		4
	Jami:	144	60	76	4	4

3.2.1 O'quv moduli mazmuni

1.0.Kasbiy rivojlantirish moduli.

1.1Modul: O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	4 kredit
--	-----------------

Tinglovchida kasbiy kompetensiyani shakllanishini ta'minlovchi ko'nikmalar	PF-158- "O'zbekiston 2030" strategiyasi mazmun mohiyati haqida Tibbiyotdagi islohotlar va korrupsiya nima? Tibbiyotdagi islohotlar – bu sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, moliyaviy va tashkiliy samaradorlikni yaxshilash bo'yicha amalga oshiriladigan o'zgarishlar. Misol: elektron sog'liqni saqlash tizimlari, poliklinika va dorixonalarni raqamlashtirish, diagnostika va davolash standartlarini takomillashtirish. Korrupsiya – bu tibbiyot tizimida qonunga xilof ravishda shaxsiy foyda olish uchun amalga oshiriladigan harakatlar. Misol: noto'g'ri retsept yozish, tibbiy xizmat uchun ortiqcha to'lov, shifokor tomonidan bemorning manfaatlarini e'tiborsiz qoldirish. Tibbiyot mutaxassisi uchun bu ikki jihatni tushunish va ularga qarshi samarali kurashish kompetensiya talab qiladi. 2. Kompetensiya tushunchasi Kompetensiya – bu muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka majmui. Tibbiyotdagi islohotlar va korrupsiya bo'yicha zarur kompetensiyalar A) Bilim kompetensiyalari Tibbiyot tizimidagi islohotlar, ularning maqsad va prinsiplarini bilish Sog'liqni saqlash qonunchiligi va etika normalarini tushunish Korrupsiyaning turlari va oqibatlarini bilish B) Amaliy ko'nikmalar Sog'liqni saqlash jarayonlarini samarali va shaffof boshqarish Resurslardan tejamkor va qonuniy foydalanish Korrupsiya holatlarini aniqlash va ularga munosabat bildirish C) Analitik va qaror qabul qilish kompetensiyalari Tibbiyot jarayonlarida islohotlarni baholash Korrupsiya xavfini aniqlash va oldini olish strategiyasini ishlab chiqish Qaror qabul qilishda axloqiy va qonuniy asoslarni hisobga olish D) Kommunikativ kompetensiyalar Bemorlar, jamoa va rahbariyat bilan shaffof va samarali muloqot qilish Korrupsiyaga qarshi tashabbuslarni targ'ib qilish Axborot va trening orqali xodimlarni islohotlar va etikaga o'rgatish E) Shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalar
---	--

	Axloqiy prinsiplarni saqlash Javobgarlik va fidoyilik Sogʻliqni saqlash tizimini shaffof va adolatli qilishga intilish
Oʻquv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	1. Sovgʻalar va ishbilarmonlik mehmondoʻstligi bilan bogʻliq korrupsiyaviy xavf-xatarlar: • Qachon sovgʻa berish yoki qabul qilish qonunga zid va korrupsiya sifatida baholanishi mumkinligini; • Qonuniy ishbilarmonlik munosabatlari bilan shaxsiy manfaat oʻrtasidagi farqni; • Qonun va ichki hujjatlarda belgilangan sovgʻalarni qabul qilish/bosh tortish qoidalarini; • Sovgʻa yoki mehmondoʻstlik orqali taʼsir oʻtkazish holatlari bilan bogʻliq jiddiy xavf-xatarlarni. • Uchinchi shaxslar orqali pul yoki sovgʻa qabul qilish kabi yashirin xavflarni aniqlashni. 2. Korrupsiyaviy harakatlar tushunchasi va ularning turlari: • Korrupsiyaviy xatti-harakatlar (pora berish/olish, suisteʼmol qilish, manfaatlar toʻqnashuvi, soxta hujjat tayyorlash va h.k.) nima ekanini; • Davlat xizmatchilari, tibbiyot xodimlari va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshirilishi mumkin boʻlgan korrupsiyaviy harakatlar turlari. 3. Korrupsiyaviy harakatlar uchun intizomiy javobgarlik: • Qonun va ichki meyoriy hujjatlarga koʻra xodimlar tomonidan sodir etilgan intizomiy buzilishlarni; • Intizomiy choralar (hayfsan, lavozimdan ozod etish, tanbeh va h.k.) qanday holatlarda qoʻllanilishini; • Xizmat tekshiruvi, intizomiy ish yuritish va qaror qabul qilish tartibini. 4. Korrupsiyaviy harakatlar uchun jinoiy javobgarlik: • Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida belgilangan korrupsiya bilan bogʻliq moddalar (210-modda – pora berish, 211-modda – pora olish, 205-modda – hokimiyat yoki mansab vakolatini suisteʼmol qilish va b.); • Jinoyat tarkibi, javobgarlik turlari va jazo choralari (jarima, ozodlikdan mahrum etish va h.k.); • Aybdor shaxslarga nisbatan amaliyotda qanday jazo qoʻllanilishi mumkinligi.
Oʻquv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	1. Sovgʻalar va mehmondoʻstlik bilan bogʻliq xatarlarni baholash va toʻgʻri munosabatda boʻlish koʻnikmasi • Qonuniy va noqonuniy sovgʻa/mehmondoʻstlik oʻrtasidagi farqni anglash;

	• Sovg'a yoki xizmat qabul qilishdan bosh tortish yuzasidan to'g'ri qaror qabul qilish; • Ishbilarmonlik munosabatlarida xolislik va kasb etikasiga amal qilish. 2. Fuqarolar bilan tozalik va shaffoflikka asoslangan munosabat o'rnatish ko'nikmasi • O'zaro munosabatlarda xizmat vazifalariga tayanish, shaxsiy manfaatlardan qochish; • Kontragentlar bilan kelishuvlarda korrupsiya xavfini oldindan ko'ra bilish; • Tashqi ta'sirlarga moyillikdan saqlanish va qarorlarni mustaqil qabul qilish. 3. Hujjatlar ekspertizasi va ijrosini xolis va shaffof amalga oshirish ko'nikmasi • Hujjatlar bilan ishlashda faktlar va dalillarga tayanish; • Ijro nazorati jarayonida "shaxsiy munosabatlar" emas, qonun va reglamentlarga asoslanish; • Hujjatlar orqali manfaatli tarafni qo'llab-quvvatlash xavfini aniqlash va undan saqlanish. 4. Korrupsiyaviy harakatlar to'g'risida xabardor qilish ko'nikmasi • Korrupsiya holatlarini qanday va qayerga xabar qilishni aniq bilish; • Xabar berishdagi anonimlik, himoya va huquqiy kafolatlardan xabardor bo'lish; • Xabar mazmunini aniq, asosli va ishonchli tarzda shakllantirish. 5. Qonunga muvofiq murojaat qilish va xabar berish ko'nikmasi Korrupsiya holatlari yuzaga kelganda qanday organlarga, qanday tartibda murojaat qilishni bilish;
O'quv mazmuni:	moduli Korrupsiya tushunchasi va uning turlari haqida bilim berish; Milliy va xalqaro qonunchilikni tahlil qilish; Korrupsiyaga qarshi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini o'rganish; Talabalarda huquqiy madaniyatni shakllantirish; Amaliy holatlar tahlili asosida huquqiy fikrlashni rivojlantirish. 1. Korrupsiya tushunchasi – Korrupsiya nima ekanligi, uning ta'rifi, mohiyati va kelib chiqish sabablari; – Korrupsiyaning asosiy turlari: pora olish va berish, xizmat mavqeidan suiiste'mol qilish, manfaatlar to'qnashuvi va h.k. 2. Milliy qonunchilik asoslari

	– “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning asosiy normalari; – O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi va Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksdagi korrupsiyaga oid moddalar; – Korrupsiyaga qarshi Milliy strategiya va dasturlar mazmuni. 3. Davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari – Korrupsiyaga qarshi davlat siyosatining maqsadlari va vazifalari; – Hukumat organlari va jamoatchilikning bu sohadagi o‘rni; – Ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash orqali korrupsiyani kamaytirish usullari. 4. Huquqiy madaniyat va ong – Korrupsiyaning jamiyatga va davlatga keltiruvchi zararlari haqida tushuncha; – Fuqarolarning huquqiy bilimi va mas‘uliyatining ahamiyati; – Etik meyorlarga amal qilish va halollikning ahamiyati. 5. Amaliy misollar tahlili orqali bilimlarni mustahkamlash – Real hayotdagi korrupsiya holatlarini tahlil qilish; – Ularni huquqiy nuqtai nazardan baholash; – Qonuniy va samarali yechimlar taklif qilish qobiliyatini rivojlantirish. Tibbiyot sohasida korrupsiyaviy jinoyatlar tushunchasi – Pora olish va berish, xizmat mavqeidan suiiste‘mol qilish, dori vositalari bilan bog‘liq jinoyatlar. 2. Korrupsiyaviy jinoyatlarning asosiy sabablari – Nazoratning sustligi, tizimdagi shaffoflik yetishmasligi, huquqiy madaniyat pastligi, jamiyatda jazosizlik hissi. 3. Ichki va tashqi omillar – Tibbiyot muassasalaridagi tashkiliy kamchiliklar; – Aholining korrupsiyaga nisbatan murosali munosabati. 4. Korrupsiya uchun javobgarlik turlari – Jinoiy javobgarlik: Jinoyat kodeksining 210, 211, 212-moddalari; – Ma‘muriy va intizomiy javobgarlik: jarima, ishdan bo‘shatish, ogohlantirish.
Adabiyotlar: 1. PF-158-son 11.09.2023y. .”O‘zbekiston-2030”strategiyasi 2. O‘zbekiston Respublikasining 03.01.2017 yildagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-sonli Qonuni // [Elektron manba]. URL: https://lex.uz/docs/3088008. 3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // [Elektron manba]. URL: https://lex.uz/docs/111453. 4. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi // [Elektron manba]. URL:	

<https://www.lex.uz/acts/111460>.

5. O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi // [Elektron manba]. URL: <https://lex.uz/docs/97664>.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.02.2017 yildagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2752-sonli Qarori [Elektron manba]. URL: <https://lex.uz/docs/3105125>.

Elektron ta’lim resurslari:

- www.minzdrav.uz–

www.gov.uz

www.press-service.uz

www.parlament.gov.uz

- www.uza.uz

- www.cbu.uz–

- www.lex.uz

- www.ziynet.uz

1.2. Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar

O‘quv moduliga ajratilgan kredit:	6 kredit
Tinglovchida kasbiy kompetensiyaning shakllanishini ta’minlovchi bilim, ko’nikmalar	Tibbiyotda raqamli texnologiyalar bo‘yicha zarur kompetensiyalar A) Bilim kompetensiyalari Raqamli texnologiyalar va ularning tibbiyotdagi qo‘llanilishini bilish Elektron sog‘liqni saqlash tizimi (EHR/EMR) va telemeditsina printsiplarini tushunish Ma’lumot xavfsizligi va bemor maxfiyligini himoya qilish qonunchiligini bilish AI va diagnostika dasturlarining asosiy ishlash printsiplari B) Amaliy ko’nikmalar Elektron sog‘liqni saqlash tizimidan samarali foydalanish Telemeditsina orqali bemorlar bilan masofaviy konsultatsiya o‘tkazish Raqamli diagnostika vositalarini ishlatish (masalan, laboratoriya natijalarini tahlil qilish) Ma’lumotlarni xavfsiz saqlash va uzatish C) Analitik va qaror qabul qilish kompetensiyalari Raqamli ma’lumotlardan tahlil qilish va xulosalar chiqarish Diagnostika va davolash bo‘yicha qarorlarni AI va

	boshqa raqamli vositalardan foydalangan holda qabul qilish Ma'lumotlar xavfsizligi va etik cheklovlarni hisobga olish D) Kommunikativ kompetensiyalar Bemorlar va hamkasblarga raqamli texnologiyalarni tushuntirish Telemeditsina konsultatsiyalarida aniq va samarali muloqot qilish Raqamli tizimlar bo'yicha jamoa bilan hamkorlik qilish
O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	• Kompyuterga axborot kiritish va axborot olish qoidalarini; • kompyuterni tuzilishi to'g'risida qisqacha ma'lumotni, kompyuterning foydali va zararli tomonlarini, kompyuterda ishlash jarayonida sanitariya qoidalariga rioya qilishni; • tibbiyotda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalari bilan ishlashni; • sog'lom jamiyat qurishda axborotlashtirishning o'rini; • sog'liqni saqlash tizimini axborotlashtirishda jahon tajribalarini; • axborotlarga ishlov berish, kiritish va chiqarish qurilmalari va ularning tavsifini; • tibbiyotda aloqa va kommunikatsiya vositalarini; • ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish; • xozirgi kunda tibbiyotda informatsion texnologiyalari sohasi rivojlanib kelmoqda-tibbiyot xodimlari uchun planshetlardan foydalanib, <i>online</i>- registratsiya qilish va ulardan foydalana olishi.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	• kompyuter texnikasi bilan ishlashda texnika havfsizligini; • dasturlar bilan ishlashni; • ma'lumotlar bazasi yaratish, ular ustida ishlashni va dasturlash asoslarini; • kompyuter grafik usullaridan foydalana olishni; • tibbiy axborotlar almashinuvi va uni izlashda internet tarmog'ida ishlashni; • elektron pochta dasturi bilan ishlashni; • AKT sog'liqni saqlash tizimida qo'llashni.

O'quv moduli mazmuni:	Tibbiyot sohasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. Tibbiyotda qo'llanilayotgan zamonaviy axborot texnologiyasi qurilmalarining dasturiy va texnik ta'minoti to'g'risida nazariy va amaliy bilimlar Tibbiy statistik ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qilish va ulardan kasallikning oldini olish yoki davolashda qo'llash. Axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish, internet tarmog'ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma'lumotlar bazasini tashkil etish, ekspert tizimlari va axborot xavfsizligi asoslarini bilish.
Tavsiya etiladigan adabiyotlar: 1.O.N.Djurayev Axborot tizimlari va texnologiyalari (tarmoqlar va sohalar buyicha) Toshkent 2020y 2.Aminov S.M "Axborot kommunikatsion texnologiyalar" 2020 y 3.Tursunov, Nazarov "Ta'limda axborot texnologiyalari" 2021 y 4.Ayupov Ravshan Hamdamovich "Ta'limda axborot texnologiyalari" TDPU, 2020 y 5. Informatika asoslari Mualliflar: M. Aripov, A. Haydarov Yuklab olish: Informatika asoslari PDF (https://uzsmart.uz/kitoblar/view/6551?utm_source=chatgpt.com) 6. Informatika va axborot texnologiyalari Muallif: Z.S. Abdullayev 7. Kompyuter savodxonligi kitobchasi Yuklab olish: Kompyuter savodxonligi PDF(https://pdfbox.uz/books/uzbek/11329-kompyuter-savodxonligi-kitobchasi?utm_source=chatgpt.com) 8. Kompyuterli va raqamli texnologiyalar Mualliflar: Hoshimov, Tulyaganov 9. Informatika (klassik darslik) Muallif: N.V. Makarova Elektron ta'lim resurslari: 1. DMED haqida asosiy tushuncha (Kapital.uz) 2. O'zbekcha tayyor adabiyotlar (PDF / DOC) (soff.uz) 2. DMED bo'yicha test savollar (Hujjat24)	

1.3.Modul: Infeksion nazorat

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	6 kredit
Tinglovchida kasbiy kompetensiyaning shakllanishini ta'minlovchi bilim, ko'nikmalar	Infeksion nazoratda kompetensiya Bu — tibbiyot xodimi yoki mutaxassisning bilim, ko'nikma va mas'uliyatli yondashuvi majmui. Kompetensiya quyidagilarni o'z ichiga oladi: Bilimlar: • Infeksion kasalliklar yuqish yo'llari • Sanitariya-epidemiologik me'yorlar • Dezinfeksiya va sterilizatsiya turlari Amaliy ko'nikmalar: • To'g'ri qo'l yuvish texnikasi • Himoya vositalarini to'g'ri kiyish va yechish • Asboblarni xavfsiz qayta ishlash Mas'uliyat va xulq-atvor: • Qoidalarga qat'iy rioya qilish • Infeksiya xavfini baholay olish • Favqulodda holatlarda tezkor choralar ko'rish
O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	• sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlarini (SanQvaN); • davolash-profilaktika muassasalariga qo'yiladigan sanitar talablarni va "infeksion nazorat komissiyasi" ish faoliyatini; • sanitar me'yor va qoidalar bo'yicha amaldagi hujjatlarni; • OIV/OITSga oid normativ hujjatlarni; • OIV etiologiya va patogenezi, epidemiologiyasini; • OIV yuqish yo'llari, tekshirish usullari, klinikasi va bemorlar parvarishini; • kasalliklardan (COVID -19) himoyalash tamoyillarini.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	• shifoxona ichi infeksiyasini oldini olishda SanQvaMlarga rioya qilishni; • muolajalar vaqtida avariya holatlari yuzaga kelishini oldini olishni; • avariya holatlari yuzaga kelganda o'tkaziladigan chora-tadbirlar yig'indisini; • o'ta xavfli va karantin infeksiyalarda epidemiyaga qarshi o'tkaziladigan chora-tadbirlarni; • himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibini. • qo'llarga gigienik ishlov berish usullari, texnikasi va qo'llarni yuvish tartibini;

O‘quv moduli mazmuni:	Davolash profilaktika muassasalarida shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish borasida qabul qilingan normativ hujjatlar. Shifoxona ichi infeksiyasini oldini olishda akusherkalarning vazifalari. Tibbiy muolajalar orqali yuqadigan kasalliklarni oldini olish. Yuqumli kasalliklar (o‘ta havfli va karantin infeksiyalar, OITS)ni tarqalishini oldini olish. OIV/OITSGa oid normativ hujjatlar. OIV etiologiya va patogenezi, epidemiologiyasi. OIV/OITS infeksiyasi. Kasalliklardan (COVID19) himoyalash tamoyillari. Himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibi.
------------------------------	---

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. San. Q va M. № 0342/17 “ DPMLarda shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi” 10 yanvar 2017 y.
2. San. Q va M. № 03-17-15.”O‘zbek.Res.davolash- profilaktika muassasalarida chiqindilarni yig‘ish,saqlash va yo‘q qilish sanitariya qoidalari va meyorlari”
- 3.V.N.Turaqulov,X.A.Raxmatova.N.A.Avezova.”Yuqumli kasalliklarda xamshiralik parvarishi”O‘quv qo‘llanma.Navoi nashriyot.2019yil.
- 4.F.I Salomova, Sh.T Iskandarova “Gigiyena. Tibbiy ekologiya” Toshkent-2020
- 5.S.B. Israilova “Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati” o‘quv qo‘llanma. Turon nashr. Samarqand-2026 <https://e-library.sammu.uz/uz/book/5400>
- 6.COVID-19 bo‘yicha milliy qo‘llanma JSST. O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash vazirligi. 2020 yil 26 mart.

7.O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi sayti

→ **rasmiy sanitariya me‘yorlari va hujjatlar**

8.ZiyoNET

→ bepul darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar

Elektron ta’lim resurslari:

<http://www.edu.uz>

<http://www.pedagog.uz>

www.tma.uz,

www.lex.uz

<https://ru.pinterest.com/vkhamidov/>

1.4.Modul: Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi

O‘quv moduliga ajratilgan kredit:	6 kredit
Tinglovchida kasbiy kompetensiyaning shakllanishini ta’minlovchi bilim,	Sterilizatsiya jarayonida texnika xavfsizligi — xodimlar salomatligi va atrof-muhitni himoyalashning asosiy omili. Kompetensiya quyidagilarni o‘z ichiga oladi: • Nazariy bilimlar: sterilizatsiya usullarining fizik-

ko'nikmalar	kimyoviy asoslarini bilish • Amaliy ko'nikmalar: uskunalarni to'g'ri ishlatish va nazorat qilish • Xavf-xatarni baholash: issiqlik, bosim, kimyoviy va biologik xavflarni aniqlash • Me'yoriy hujjatlarga rioya qilish: sanitariya qoidalari va xalqaro standartlar • Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik: nosozlik yoki avariya holatida to'g'ri harakat qilish Zamonaviy yondashuvning ahamiyati Zamonaviy sterilizatsiya texnologiyalarini joriy etish: • infeksiya xavfini kamaytiradi, • ish unumdorligini oshiradi, • xodimlar va bemorlar xavfsizligini ta'minlaydi, • sifat menejmenti tizimlarini mustahkamlaydi.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	• Sterilizatsiya sohasi bo'yicha mavjud bo'lgan fizikaviy, kimyoviy, mexanik, biologik, aralash va yangi zamonaviy usullar to'g'risida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lish Sterilizatsiya va uning turlarini. • Gazli sterilizatsiya usullarini • Plazmali va ozonli sterilizatsiya usullarini • Sterilizatorlar va avtoklavlar bilan ishlash davridagi texnika xavfsizligi qoidalari haqida tushunchaga ega bo'lishi
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	• tibbiy asboblarni quruq issiqlik shkafida sterillashni, • tibbiy vositalarning sterillanganlik sifatini tekshirish usullarini, • texnika xavfsizligini, • tibbiy vositalarning sterilizatsiya sifatini tekshirish usullarini bajara olishi.
O'quv moduli mazmuni:	Sterilizatsiyani olib borish xonalaridagi aseptika va antiseptika tadbirlari. Sterilizatsiya va avtoklavlash tadbirlariga tinglovchilarni amaliy tomondan o'qitish va o'rgatish. Mashg'ulotlar davomida markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan sterilizatsiya bo'limlari turlari haqida tushuncha berish, zamonaviy sterilizatsiya apparatlari bilan tanishtirish, texnika xavfsizligi masalalari bo'yicha ma'lumotlar berib borish. Asosiy diqqat va e'tiborni sterilizatsiya ishlarini to'g'ri olib borish, sterilizatsiyaning sifatli bo'lishini ta'minlovchi tadbirlar va uni tekshirish uchun zarur indikatorlardan to'g'ri foydalanish va ishlatish qoidalari to'la amal qilish.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

- 1.K.F.Melibayeva,G.F.Ergasheva. "Aseptika, antiseptika va dezinfeksiya" Uslubiy qo'llanma.Qo'qon.2025yil.
- 2.V.N.Turaqulov,F.A.Qurbonov."Xirurgiyada xamshiralik parvarishi"O'quv qo'llanma.Navoi nashriyot.2019 yil.
3. G.T Dxritiman,G.T.Iskandarova "Uskunaning hayotiy siklini boshqarish bo'yicha qo'llanma-Bug'li sterilizator(Avtoklav)"Tibbiyot xodimlari uchun uslubiy tavsiyanomalar.Toshkent.2024 yil.
- 4.G.T Dxritiman,G.T.Iskandarova "Uskunaning hayotiy siklini boshqarish bo'yicha qo'llanma-Plazmali sterilizator" Tibbiyot xodimlari uchun uslubiy tavsiyanomalar.Toshkent 2024 yil.
- 5.Elektron ta'lim resurslari:

1. Zamonaviy sterilizatsiya usullari

- **Sterilizatsiya usullari. Sterilizatsiya xususiyatlari**
Muallif: Arzimatova Ra'no Pardaboy qizi ([JournalSS](#))

2. Aseptika va antiseptika asoslari

- **Tibbiyot xodimlarining aseptika va antiseptik sterilizatsiya usullarini qo'llanishi**

Mualliflar:

- Sh.Ya. Radjabov
- G.R. Kadamova
- M.M. Olimova ([pedagogs.uz](#))

3. Mikrobiologiya va sterilizatsiya

- **Mikrobiologiya va virusologiya**
Mualliflar: OTM professor-o'qituvchilari (NamDU) ([www.namdu.uz](#))

4. Umumiy tibbiyot va dezinfeksiya

- **Tibbiyotda dezinfeksiya va sterilizatsiya asoslari** ([book.bsmi.uz](#))

5. Sterilizatsiya usullari va qo'llanilishi, Stomatologiyada sterilizatsiya

- **Sterilizatsiya usullari va ularning qo'llanilishi**
Muallif: Shoda Team ([Hujjat24](#))

1.5. Modul: Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	10 kredit
Tinglovchida kasbiy kompetensiyaning shakllanishini ta'minlovchi bilim, ko'nikmalar	Jismoniy faollik va sog'lom turmushda kompetensiyalar Bu sohadagi kompetensiyalar quyidagilarni o'z ichiga oladi: • Sog'lom turmush qoidalari bo'yicha bilimga ega bo'lish • Shaxsiy sog'liqni baholay olish va nazorat qilish • To'g'ri ovqatlanish rejasini tuzish ko'nikmasi • Jismoniy mashqlarni xavfsiz va samarali bajarish

12	Oshqozonni yuvish ketma ketligi.	    Оборудование для экстренного промывания желудка довольно простое, однако необходимо помнить, что трубка, воронка и желодок, должны быть стерильной.	Steril, yo‘gon me‘da zondi, voronka, 1 chelak yuvish uchun eritma (4,2% li natriy gidrokarbonat eritmasi, suv), 1 litrli ko‘zacha, klyonkali fartuk, klyonka, suv solish uchun tog‘ora, sochiq, “Janye” shpritsi, qo‘lqop.	1 .Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi; 2. Qo‘l yuviladi va quritiladi; 3. Fartuk va qo‘lqop kiyiladi; 4. Bemordan ko‘ylak tugmachalarini yechish so‘raladi; 5. Bemor to‘g‘ri o‘tqaziladi: stulga suyangan holda boshi oldinga engashgan, oyoqlari bir oz ochilgan holda o‘tqaziladi; 6. Bemorning bo‘yin va ko‘kragiga klyonka fartuk tutiladi; 7. Pinset yordamida steril, nam zond olinadi. O‘ng qo‘l bilan yopiq uchidan 10-15 sm oraliqda ushlanadi, chap qo‘l bilan ikkinchi uchi ushlanadi; 8. Me‘daga qancha santimetrda zond kiritilishi aniqlanadi; 9. Bemordan og‘iz ochish va burun orqali chuqur nafas olish so‘raladi. Zondning yopiq uchi til ustiga qo‘yiladi; 10. Bemordan



yutinishi soʻraladi. Har bir yutinganda zond asta-sekin yuboriladi. Zond belgilangan qismigacha kiritiladi; 11. Zondning ikkinchi uchiga voronka kiygiziladi; 12. Oʻrnatilgan voronka bemorning tizzasigacha tushuriladi va yuvush uchun tayyorlangan eritma bilan toʻldiriladi; 13. Eritma solingan voronka asta-sekinlik bilan koʻtariladi. 14. Voronka yana asta-sekin tizzagacha tushiriladi va ichidagi suyuqlik togʻoraga tushuriladi; 15. Muolaja meʼdan toza suv tushguncha 15 -16 marta qaytariladi; 16. Salfetka bilan zond uchi oʻraladi; 17. Asta-sekinlik bilan zond meʼdan chiqariladi va salfetka bilan artiladi; 18. Bemor oldidan klyonka olinadi va ishlatilgan asboblarni zararsizlantiriladi;

Qoʻlqop va fartuk yechiladi va

				zararsizlantiriladi; 20.Me'da yuvilgandan so'ng bemor ahvoli kuzatiladi.
13.	Sifonli huqna o'tkazish ketma ketligi.	HANDS WASHING MEDICAL INSTRUCTION  VectorStock VectorStock.com/6372085   	Suyuq sovun, bir martalik qog'oz salfetka, vazelin, bir martalik qo'lgop, kleyonka fartuk. Steril yo'g'on naycha, lotok, kleyonka, katta taglik, shpatel. Hajmi 1 litrli voronka, 10-12 litr qaynatilgan, harorati 37C li suv solingan idish, 1litr hajmdagi krujka. Voronka, yuvindi suvlar uchun idish. 0,5% gipoxlorid natriy eritmasi	1 .Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi; . Qo'l yuviladi va quritiladi; . Fartuk va qo'lgop kiyiladi; . Bemordan ko'ylak tugmachalarini yechish so'raladi; . Bemor to'g'ri o'tqaziladi: stulga suyangan holda boshi oldinga engashgan, oyoqlari bir oz ochilgan holda o'tqaziladi; 6.Bemorning bo'yin va ko'kragiga klyonka fartuk tutiladi; 7.Pinset yordamida steril, nam zond olinadi. O'ng qo'l bilan yopiq uchidan 10-15 sm oraliqda ushlanadi, chap qo'l bilan ikkinchi uchi ushlanadi; . Me'daga qancha santimetrda zond kiritilishi aniqlanadi; . Bemordan og'iz ochish va burun orqali chuqur nafas olish so'raladi. Zondning yopiq uchi til ustiga qo'yiladi; 10.Bemordan yutinishi so'raladi.

			Har bir yutinganda zond asta-sekin yuboriladi. Zond belgilangan qismigacha kiritiladi; 11.Zondning ikkinchi uchiga voronka kiygiziladi; .Oʻrnatilgan voronka bemor tizzasigatushuriladi va yuvush uchun tayyorlangan eritma bilan toʻldiriladi; .Eritma solingan voronka asta-sekinlik bilan koʻtariladi. .Voronka asta-sekin tizzagacha tushiriladi va ichidagi suyuqlik togʻoraga tushuriladi; .Muolaja meʼdan toza suv tushguncha 15 -16 marta qaytariladi; 16.Salfetka bilan zond uchi oʻraladi; .Asta-sekinlik bilan zond meʼdan chiqariladi va salfetka bilan artiladi; .Bemor oldidan klyonka olinadi va asboblarni zararsizlantiriladi; .Qoʻlqop va fartuk yechiladi va zararsizlantiriladi; 20.Meʼda yuvilgandan soʻng bemor ahvoli kuzatiladi.
--	--	--	---

4.DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK TA'MINOTI

4.1. O'quv bazalari: Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filiali Buvasadin kucha-18-uy.

Davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

Amaliyot bazasi: davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

4.2. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jixozlar ro'yxati:

Modul bo'yicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o'tiladigan o'quv auditoriyalari. Multimediali jamlanma: slaydlar to'plami bo'lgan rrt ko'rinishli ma'ruzalar, SD diskda ko'rgazma materiallar, ekran, videofilmlar.

Klinik amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash trening o'kuv xonasi, mulyaj, fantom v.b jihozlar. Mavzular bo'yicha turli jadvallar, tasviriy ko'rgazma va qo'llanmalar.

4.3. ADABIYOTLAR RO'YXATI

4.3.1. Qonunchilik va me'yoriy-xuquqiy xujjatlar:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari.

2.O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirligining buyruq va me'yoriy hujjatlari:

3.№ 111 sonli 19-may 2023 yil O'zbekiston Respublikasi SSV ning "O'zbekiston Respublikasida OIV infeksiyasini oldini olish chora- tadbirlari va tibbiy yordamni tashkil etishni yanada takomillashtirish to'g'risida"

4.№ 37 - 23.01.2015 Res. da aholi o'rtasida o'ta xavfli zooantroponoz yuqumli kasalliklarga qarshi olib borilayotgan chora-tadbirlarni takomillashtirish to'g'risida.

5.№ 542 - 27.08.2018 Res.da virusli hepatitlar tashhisoti, davosi va profilaktikasi bo'yicha chora- tadbirlarni yanada takomillashtirish to'g'risida.

6.O'zbekiston Respublikasi sanitariya qoidalari, me'yorlari va gigienik normativlari. O'zR SanQvaM № 0365 -19.

7.SanQvaM № 0342/17 - 10 yanvar 2017 yil

8.O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirligining 2002-yil 02-yanvar № 1-sonli «Oba (Chuma) kasalligi ustidan epidemiologik nazoratni va profilaktikasi xaqida buyruq.

9.O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirligining 2012-yil 25-yanvardagi «O'zbekiston respublikasida vabo kasalligi ustidan epidemiologik nazoratni yanada takomillashtirish to'g'risida» №25 sonli buyruq.

10.O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirligining 2015-yil 1-maydagi «Bakteriologik, virusologik va o'ta xavfli yukumli kasalliklar laboratoriyalarida o'tkaziladigan laboratoriya tekshiruv usullarini takomillashtirish to'g'risida» №177 sonli buyruq.

11.O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2015-yil 25-martdagi "Respublika aholisi o'rtasida ich terlama, paratif, salmonellez, va qtkir

ichak kasalliklarning oldini olish borasida olib boriladigan chora-tadbirlarni takomillashtirish to'g'risida"gi 122-sonli buyrug'i.

12.O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2015-yil 25-martdagi "Respublikada parazitlar kasalliklar profilaktikasi buyicha chora-tadbirlarni takomillashtirish to'g'risida"gi 121-sonli buyrug'i.

13.O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2014-yil 14-iyuldagi "O'tkir respirator infeksiyalarning epidemiologik nazoratini takomillashtirish to'g'risida"gi 242 – sonli buyrug'i.

Asosiy adabiyotlar:

1. V.N.Turakulov."Yuqumli kasalliklarda hamshiralik parvarishi"Toshkent 2019-yil

2. M.N.CHo'liyeva "Yuqumli kasalliklarda hamshiralik parvarishi" o'quv qo'llanma 2024-yil

3. Z.Ismoilova "Parenteral yo'l orqali yuqadigan yuqumli kasalliklarda hamshiralik parvarishi" o'quv uslubiy qo'llanma 2024-yil

4. D.M.Jabbarova "Bolalar va kattalarda uchraydigan nafas yo'llari orqali yuqadigan yuqumli kasalliklarda hamshiralik parvarishi" o'quv uslubiy qo'llanma 2024-yil

5. Sh.Ganiyeva "Yuqumli kasalliklar immunoprofilaktikasi" bo'yicha qo'llanma 2024-yil

Elektron adabiyot

1. M.D.Axmedova "Yuqumli kasalliklarda hamshiralik ishi" darslik Toshkent 2008-yil

4.3.2. Elektron ta'lim resurslari

- www.ziyonet.uz- Ma'lumotlar portali
- <http://www.ziyonet.uz>
- <http://www.edu.uz>
- <http://www.pedagog.uz>
- www.tma.uz,
- www.lex.uz

5.Oraliq nazorat

Oraliq nazorat – sikl davomida o'quv dasturining (bir necha mavzularni o'z ichiga olgan) moduli tugallangandan keyin tinglovchilarining bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baxolash usuli. Oraliq nazorat test, suxbat, vaziyatli masala yechish, yozma ish, amaliy ko'nikmalarni baxolash yoki ularni kombinatsiyalangan shakllarda o'tkaziladi, aniq ishlab chiqilgan baholash mezonlari bo'yicha baxolanadi va natijalari gurux jurnalida qayd etiladi.

Andijon filialida malaka oshirish kurslaridagi oraliq nazoratlar bir marotaba og'zaki so'rov shaklida o'tilgan mavzular asosida nazariy amaliy savollarni o'z

ichiga olgan xolda 5 ta savoldan iborat biletlar yordamida amalga oshiriladi. Har bir to'g'ri javobga maksimal 20 balldan (%) beriladi, o'tish balli 60 ball (%) .Oraliq nazoratdan o'tgan tinglovchilar nazoratning keyingi bosqichi Yakuniy attestatsiyaga qo'yiladi.

Oraliq nazorat savollari

1-bilet

1. Yuqumli kasallik tushunchasi va ularning asosiy belgilari.
2. Yuqumli kasalliklarning yuqish yo'llari (havo-tomchi, kontakt, parenteral va boshqalar).
3. Yuqumli kasalliklar bo'limida hamshiraning asosiy vazifalari.
4. Bemorlarni izolyatsiya qilish va karantin tushunchasi.
5. Yuqumli kasalliklarda hamshiralik parvarishining ahamiyati.

2-bilet

1. Yuqumli kasalliklarning tasnifi (virusli, bakterial, parazitlar).
2. Infeksiya manbai va infeksiya rezervuari tushunchasi.
3. Yuqumli bemorni qabul qilishda hamshiraning harakatlari.
4. Shaxsiy gigiyena va himoya vositalarining ahamiyati.
5. Yuqumli kasalliklarning oldini olishda hamshiraning roli.

3-bilet

1. Epidemiologik jarayon tushunchasi va uning bo'g'inlari.
2. Yuqumli kasalliklarning inkubatsiya davri.
3. Dezinfeksiya turlari (joriy va yakuniy dezinfeksiya).
4. Yuqumli kasalliklarda bemor bilan muloqot qilish qoidalari.
5. Yuqumli kasalliklar bo'limida sanitariya-gigiyenik talablar.

4-bilet

1. Yuqumli kasalliklarning umumiy klinik belgilari.
2. Isitma (gipertermiya) va uning bosqichlari.
3. Yuqumli kasalliklarda parhez va ovqatlantirish.
4. Bemorni kuzatishda hamshiraning majburiyatlari.
5. Yuqumli kasalliklarda asoratlarning oldini olish choralari.

5-bilet

1. Yuqumli kasalliklarning rivojlanish bosqichlari.
2. Intoksikatsiya tushunchasi va uning belgilari.
3. Yuqumli kasalliklarda hamshiraning kuzatuv daftari yuritishi.
4. Bemor haroratini o'lchash va baholash qoidalari.
5. Yuqumli kasalliklarda suyuqlik balansini nazorat qilish.

6-bilet

1. O'tkir yuqumli kasalliklar tushunchasi.
2. Surunkali yuqumli kasalliklar haqida umumiy ma'lumot.
3. Yuqumli kasalliklarda hamshiralik jarayoni bosqichlari.
4. Bemorni transportirovka qilish qoidalari.
5. Yuqumli bo'limda tibbiy chiqindilarni utilizatsiya qilish.

7-bilet

1. Ichak yuqumli kasalliklari (dizenteriya, salmonellyoz) haqida tushuncha.
2. Ich ketishda hamshiraning birinchi yordami.

3. Suvsizlanish (degidratatsiya) belgilari.
4. Ichak infeksiyalarida parhez talablari.
5. Ichak yuqumli kasalliklarining profilaktikasi.

8-bilet

1. Havo-tomchi yo‘l bilan yuqadigan kasalliklar.
2. Gripp va O‘RVI da hamshiralik parvarishi.
3. Yo‘tal va nafas yetishmovchiligida hamshira yordami.
4. Nafas yo‘llari infeksiyalarida izolyatsiya qoidalari.
5. Vaksinatsiyaning yuqumli kasalliklarni oldini olishdagi o‘rni.

9-bilet

1. Qon orqali yuqadigan yuqumli kasalliklar (OIV, gepatitlar).
2. Parenteral yuqish yo‘li tushunchasi.
3. Inyeksiya qilishda aseptika va antiseptika qoidalari.
4. Tibbiyot xodimlarini kasbiy zararlanishdan himoyalash.
5. Favqulodda holatlarda (igna sanchilishi) hamshiraning harakati.

10-bilet

1. Bolalar orasida uchraydigan yuqumli kasalliklar.
2. Epidemiya va pandemiya tushunchasi.
3. Karantin va observatsiya tadbirlari.
4. Yuqumli kasalliklarda dispanser nazorat.
5. Yuqumli kasalliklarning umumiy profilaktik choralari.

11-bilet

1. Qizamiq kasalligining etiologiyasi va epidemiologiyasi.
2. Qizamiqda asosiy klinik belgilar.
3. Qizamiq bilan og‘rigan bemorga hamshiralik parvarishi.
4. Qizamiqning asoratlari.
5. Qizamiqning profilaktikasi.

12-bilet

1. Epidemik parotit (oqsoqol) kasalligi haqida tushuncha.
2. Epidemik parotitning etiologiyasi.
3. Epidemik parotitda klinik belgilari.
4. Epidemik parotitda hamshiralik parvarishi.
5. Epidemik parotitning profilaktikasi.

13-bilet

1. Qizilcha (rubella) kasalligi haqida umumiy ma’lumot.
2. Qizilchanning yuqish yo‘llari.
3. Qizilchada asosiy klinik belgilar.
4. Qizilcha bilan og‘rigan bemorga hamshiralik parvarishi.
5. Qizilchanning profilaktikasi.

14-bilet

1. Ich terlama (tif) kasalligining etiologiyasi.
2. Ich terlamaning epidemiologiyasi.
3. Ich terlamada asosiy klinik belgilar.
4. Ich terlamada hamshiralik parvarishi.
5. Ich terlamaning profilaktikasi.

15-bilet

1. Virusli hepatitlar haqida umumiy tushuncha.
2. Hepatit A ning yuqish yo'llari.
3. Hepatit B va C ning yuqish yo'llari.
4. Hepatitlarda hamshiralik parvarishi.
5. Virusli hepatitlarning profilaktikasi

6.YAKUNIY ATTESTATSIYA

6.1. Yakuniy attestatsiyaga quyiladigan talablar

Yakuniy attestatsiya O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyruq 3-ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini baholash to'g'risidagi Nizom» asosida o'tkaziladi.

Umumiy malaka oshirish kurslarida **Yakuniy attestatsiya** ga Oraliq nazoratdan o'tgan tinglovchilar kiritiladi. Nazoratning ushbu turi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

-Test sinovi;

-Amaliy ko‘nikmani baxolash bosqichlarida amalga oshiriladi

-Yakuniy suhbat (Imtixon)

Test sinovi – malaka oshirish o‘quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan test banki asosida o‘tkaziladi. Test sinovi natijalari quyidagicha baxolanadi: to‘plangan to‘g‘ri javoblar xajmi umumiy test topshirig‘ining 60 % va undan ortiqni tashkil etganda “O‘tdi”, 59% va undan kam natijaga erishilganda — “O‘tmadi” deb baxolanadi. Tinglovchining tayanch bilimlarini aniqlash va yakuniy test sinovini o‘tkazish uchun mazkur malaka oshirish kursi dasturi doirasida tuzilgan bir xil test topshiriqlari bankidan foydalaniladi. Tinglovchiga test topshiriqlari bankidan 50 tadan kam bo‘lmagan xajmda test topshiriqlari beriladi. Har bir to‘g‘ri javob 2 balldan baholanadi.

Yakuniy attestatsiyaning amaliy ko‘nikmani baxolash bosqichiga test sinovidan o‘tgan tinglovchilar qo‘yiladi. Amaliy ko‘nikmani baxolashda o‘rta tibbiyot va farmasevtika kadrlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirishga qo‘yilgan amaldagi Davlat talablari va malaka talablari doirasida tinglovchi tomonidan amalga oshirilishi lozim ko‘nikmalar sinovdan o‘tkaziladi. Baxolash natijalari “O‘tdi” va “O‘tmadi” deb belgilanadi.

Yakuniy suhbat shaklida tinglovchilarga har biri 5 ta savoldan iborat 2 ta vaziyatli masalali bilet beriladi. Vaziyatli masalalarni yechish natijasi mazkur vaziyatli masalada belgilangan savollarga berilgan to‘g‘ri javoblar soni asosida shakllantiriladi . Har bir savolga berilgan to‘g‘ri javoblar 10 balldan baholanadi. Nazoratning ushbu to‘g‘ri berilgan umumiy to‘g‘ri javoblar soni 7 ta (70%) va undan ortiq bo‘lganda —“ o‘tdi”, 6 ta va undan kam bo‘lgan xollarda – “o‘tmadi “ sifatida baxolanadi.

Tinglovchining bilim va ko‘nikmalari quyidagi mezonlar bo‘yicha baxolanadi:

O‘zlashtirish	Baho	Tinglovchining bilim darajasi
87-100	5	Tinglovchi o‘quv dasturining barcha bo‘limlari bo‘yicha tizimli, chuqur va to‘liq bilimga ega; Savollarga mantiqiy to‘liq va izchil javob beradi; Javoblarida nazariyani amaliyot bilan chambarchas bog‘laydi; Amaliy masalalarni xal etishda olgan bilimlarini fikrini xatosiz, to‘g‘ri asoslaydi; Amaliy ko‘nikmalarni algoritm bo‘yicha izchil va to‘g‘ri bajaradi; Amaliy topshiriqlarni bajarishda kasbiy bilimini mukammal ko‘rsata oladi; Vaziyatli masalalarni to‘g‘ri yechadi, javoblarni asoslaydi; Noanaviy xolatlarida muammoni mustaqil va ijodiy yechadi.
76-86	4	Tinglovchi dastur doirasida to‘liq bilimlarga ega, javobini xatosiz bayon etadi, savollarga mantiqiy to‘g‘ri javob beradi; Amaliy masalalarni xal yetishda olgan bilimlarini, xatosini

		o'z vatida to'g'rilaydi; Amaliy ko'nikmalarni algoritm bo'yicha izchil va to'g'ri bajaradi; Amaliy topshiriqlarni bajarishda yetarli kasbiy bilimga egaligini ko'rsata oladi; Vaziyatli masalalarni to'g'ri yechadi, javoblarni asoslaydi.
60-75	3	Tinglovchi dastur doirasida bilimga ega, savollarga to'g'ri javob beradi, lekin ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yadi; olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay oladi; Amaliy ko'nikmalarni algoritm bo'yicha izchil va to'g'ri bajaradi; Vaziyatli masalalarni to'g'ri yechadi, biroq yoasoslashda qiynaladi.
60 dan kam	2	Tinglovchi dastur doirasidagi materialning asosiy qismini bilmaydi, savollar javob berishda qo'pol xatolarga yo'l qo'yadi; Javobini mantiqiy bayon etmaydi; olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olmaydi; Amaliy ko'nikmalarni bajarishda xatoliklarga yo'l qo'yadi; Vaziyatli masalalarni yechishda qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yadi.

6.2 Nazorat savollari

1. Yuqumli kasalliklar shifoxonasida (yoki bo'limida) ichki infeksiya (gospital infeksiya) tarqalishining oldini olishda hamshiraning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
2. Dezinfeksiya va sterilizatsiya tushunchalarining farqi nimada? Ularning turlarini sanab oting.
3. Shaxsiy himoya vositalari (shlem, niqob, qo'lqop, xalat) qanday ketma-ketlikda kiyiladi va yechiladi?
4. Yuqumli kasal bilan muloqotda bo'lgan tibbiyot xodimi qo'lini yuvish va antiseptik bilan ishlov berishning qanday bosqichlarini bajarishi shart?
5. Tibbiy chiqindilarni tasniflash (A, B, V, G sinflari) qoidalarini qanday va yuqumli bo'lim chiqindilari qaysi sinfga kiradi?
6. Karantin va observatsiya tushunchalarining bir-biridan farqini tushuntiring.
7. Shifoxona ichi infeksiyalarining manbalari va yuqish yo'llari nimalardan iborat?
8. Yuqumli kasallikka chalingan bemorning cho'yshablari va kiyim-kechaklari qanday zararsizlantiriladi?
9. Dezinfeksiyalovchi eritmalar bilan ishlashda hamshira xavfsizlikning qaysi qoidalariga rioya qilishi kerak?

10. Tibbiy asboblarni sterilizatsiyadan oldingi tozalash (SOP) sifatini nazorat qilish uchun qanday sinamalar (probalar) o'tkaziladi?
11. Gripp va boshqa O'RVI bilan og'riqan bemorlarni parvarish qilishda havotomchi yo'li orqali yuqishning oldini olish choralari qanday?
12. Meningokokkli infeksiya (meningit) bilan og'riqan bemorda qanday o'ziga xos klinik belgilar kuzatiladi va hamshira bunga qanday e'tibor berishi kerak?
13. Bo'g'ma (Difteriya) kasalligida tomoqni ko'zdan kechirish va surtma (bakteriologik analiz) olish qoidalari qanday?
14. Ko'kso'tal (Klyush) bilan og'riqan bolani parvarish qilishda xurujli yo'tal paytida hamshira qanday birinchi yordamni ko'rsatadi?
15. Qizamiq (Kora) va Suvchechak (Vetryanka) kasalliklarida toshmalarni parvarish qilish va asoratlarning oldini olishda hamshiralik parvarishi nimalardan iborat?
16. Tuberculosis (Sil) kasalligi bilan og'riqan bemorning balg'amini yig'ish va zararsizlantirish qoidalari qanday?
17. Havotomchi infeksiyalari bo'limida havoni zararsizlantirish (bakteritsid lampalar bilan ishlash) tartibi qanday?
18. O'tkir ichak infeksiyalari (dizenteriya, salmonellez) bilan og'riqan bemorlarning najasini laboratoriya tekshiruviga yig'ish tartibi qanday?
19. Vabo (Xolera) kasalligida hamshira tomonidan bemorning suvsizlanish (degidratatsiya) darajasini baholash mezonlari nimalardan iborat?
20. Oral rehidratatsiya (og'iz orqali suyuqlik ichirish) qanday o'tkaziladi va Regidron eritmasini tayyorlash qoidasi qanday?
21. Botulizm kasalligida hamshira zudlik bilan bajarishi kerak bo'lgan muolajalar (me'dani yuvish, klizma) qanday xususiyatlarga ega?
22. Virusli gepatit A va E (enteral) bilan og'riqan bemorlar uchun qaysi parhez stoli (dieta) buyuriladi va uning mohiyati nimada?
23. Virusli gepatit B, C, D (parenteral) yuqish yo'llari qanday va hamshira o'zini professional yuqtirishdan qanday himoya qilishi kerak?
24. Tibbiyot xodimining qo'liga yoki ko'z shilliq qavatiga gepatit B yoki OIV bilan kasallangan bemorning qoni sachraganda zudlik bilan qanday choralar ko'riladi?
25. Ichak infeksiyalari bilan og'riqan bemor yotgan xonada joriy va yakuniy dezinfeksiya qanday tashkil etiladi?
26. Bezgak (Malyariya) kasalligida xuruj (isitma, qaltirash, terlash) paytida hamshiralik parvarishi qanday tashkil etiladi?
27. Bezgak kasalligiga shubha qilinganda qon surtmasi ("yo'g'on tomchi" va "bupburtik surtma") qanday olinadi?
28. Hantavirus (buyrak sindromli gemorragik isitma) kasalligida siydik ajralishini (diurez) nazorat qilishning ahamiyati nimada?

29. Qrim-Kongo gemorragik isitmasi bilan ogʻrigan bemorni parvarish qilishda qon ketishining oldini olish va xavfsizlik choralari qanday?
30. Transmissiv infeksiyalarni tashuvchi hasharotlar (kana, chivin, burga)ga qarshi kurashishda hamshiraning roli nimadan iborat?
31. Quturish (Gidrofobiya) kasalligiga shubha qilingan hayvon tishlaganda jarohatga birlamchi ishlov berish qoidalari qanday?
32. Quturishga qarshi vaksina (antirabik vaksina) va immunoglobulin yuborish tartibi qanday?
33. Kuydirgi (Sibir yarasi) kasalligining teri shaklida yaralarni parvarish qilishda nimalar taqiqlanadi?
34. Brusellyoz kasalligida tayanch-harakat tizimi shikastlangan bemorlarni parvarish qilishning oʻziga xosliklari nimada?
35. Tetanus (Sizot / Qoqshol) kasalligida bemor yotgan xonaga (yorugʻlik, shovqin) qoʻyiladigan talablar va tanaffussiz asab tizimini himoya qilish choralari qanday?
36. Qoʻtir (Chesotka) va bitlash (Pedikulez) aniqlangan bemorga nisbatan hamshira qanday chora-tadbirlarni amalga oshiradi?
37. OIV infeksiyasining yuqish yoʻllari va yuqmaydigan holatlarini sanab oting.
38. OIV infeksiyali bemorlarga tibbiy yordam koʻrsatishda etik va deontologik qoidalar (sir saqlash, kamsitmaslik) qanday tartibga solinadi?
39. Oʻta xavfli infeksiyalar (Vabo, Oʻlat, Kuydirgi) aniqlanganda shifoxonada "Tezkor xabar" (Ekstrennoye izvesheniye) qanday va qayerga yuboriladi?
40. Oʻta xavfli infeksiya gumon qilingan bemor xonasiga kirishda kiyiladigan epidemiyaga qarshi maxsus kiyim (Chuma kostyumi) turlari va ulardan foydalanish qoidalari qanday?
41. Yuqumli kasalliklarda uchraydigan infeksiyon-toksik shok (ITS) belgilarini aniqlang va hamshiraning birinchi navbatdagi harakatlarini tushuntiring.
42. Yuqori tana harorati (Gipertermiya) boʻlgan bemorga hamshira tomonidan koʻrsatiladigan jismoniy va dorivor yordam choralari qanday?
43. Bemorda tinimsiz qusish va koʻngil aynishi kuzatilganda hamshiralik parvarishi qanday tashkil etiladi?
44. Yuqumli kasal shifoxonasida bemorlarni qabul qilish boʻlimi (sanpropusknik) qanday tuzilgan va uning ishlash prinsipi nimadan iborat?
45. Anafilaktik shok rivojlanganda hamshira shifokor kelguniga qadar qaysi preparatlarni tayyorlashi va qanday yordam koʻrsatishi shart?
46. Bolalarda uchraydigan oʻtkir stenoziyanuvchi laringotraxeit (soxta krup) xurujida hamshiralik yordami nimlardan iborat?
47. Yuqumli kasalliklar shifoxonasidan bemorlarni chiqarish (vipiska) qoidalari qanday (klinik va bakteriologik sogʻayish)?
48. Milliy emlash taqvimi (Kalendar privivok) boʻyicha bolalarni yuqumli kasalliklarga qarshi rejali emlashda hamshiraning vazifalari nimlardan iborat?

49. Vaksinalarni saqlashda "Sovuqlik zanjiri" (Xolodovaya sep) qoidasi nima va uning buzilishi qanday oqibatlarga olib keladi?
50. Bemordan turli tahlillar (qon, siydik, najas, surtmalar) olishda hamshiralik xujjatlarini rasmiylashtirish va namunalarni laboratoriyaga yetkazish qoidalari qanday?

6.3 Test savollari

1-variant

1. Yuqumli kasallik rivojlanishi uchun qaysi omillar zarur?
A. Mikroblarning toksin turi va miqdori
B. Ob-havo va fasl
C. *Organizm reaktivligi, mikroblarning virulentligi va miqdori
D. Kasallikka moyillik
2. Immunitet necha turga bo'linadi?
A. 5 turga
B. 4 turga
C. 3 turga
D. *2 turga
3. Antitelolar nima?
A. Mikroorganizmlar
B. *Antigenga nisbatan hosil bo'ladigan maxsus oqsillar
C. Toksinlar
D. Himoya vositalari
4. Sil tayoqchasi qachon, kim tomonidan kashf etilgan?
A. 1912 yilda Gon tomonidan
B. 1939 yilda Linnikova tomonidan
C. *1882 yilda Kox tomonidan
D. 1890 yilda Kox tomonidan
5. Mantu sinamasi necha soatdan keyin aniqlanadi?
A. 48 soatdan keyin
B. *72 soatdan keyin
C. 56 soatdan keyin
D. 24 soatdan keyin
6. Allergiya nimani anglatadi?
A. *Allergenlarga nisbatan organizmning javob reaksiyasi
B. Terining qichishishi
C. Kasallik belgisi
D. Ter bezlarining yallig'lanishi
7. Qorin tifi qo'zg'atuvchisiga xos belgi:
A. Xivchini yo'q
B. *Xivchinlari bor, spora va kapsula hosil qilmaydi

- C. Gramm musbat
 - D. Anaerob
8. Vaksinalar nimadan tayyorlanadi?
- A. Bijg'itilgan mikroorganizmlardan
 - B. Qon zardobidan
 - C. Toksinlardan
 - D. *Zaiflashtirilgan va o'ldirilgan mikroorganizmlardan
9. Ovqat toksikoinfeksiyasining yashirin davri:
- A. 2 kun
 - B. *24–48 soat
 - C. 30 minut – 12 soat
 - D. 72 soat
10. Tirik vaksinalar qanday immunitet hosil qiladi?
- A. *Faol
 - B. Passiv
 - C. Biologik
 - D. Tez yo'qoluvchi
11. Bezgak chivinlari qayerda yashaydi?
- A. *Botqoqliklar, suv havzalari
 - B. Tuproqda
 - C. Havoda
 - D. Go'ngda
12. Qorin tifi tayoqchasi qanday toksin ajratadi?
- A. *Endotoksin (parchalanganda)
 - B. Endo va ekzotoksin
 - C. Ekzotoksin
 - D. Ajratmaydi
13. Qorin tifida toshma qayerda joylashadi?
- A. Yuzda
 - B. Oyoq-qo'lda
 - C. Bo'yinda
 - D. *Qorin, ko'krak pastki qismi, bel, bilak ichki yuzasi
14. Botulizm bakteriyasi qaysi muhitga chidamli?
- A. Kislorodli
 - B. *Kislorodsiz
 - C. Nam
 - D. Quyoshli
15. Gepatit "E" yuqish yo'li:
- A. *Oziq-ovqat orqali
 - B. Suv orqali
 - C. Pashsha orqali
 - D. Qon orqali
16. "B", "C", "D" gepatitdan tuzalganlar donor bo'la oladimi?
- A. Mumkin

- B. *Mumkin emas
 - C. Favqulodda holatda
 - D. Shifokor ruxsati bilan
17. "C" gepatitda infeksiya manbai:
- A. Tashuvchilar
 - B. Hayvonlar
 - C. Chivinlar
 - D. *Kasallikning turli klinik shaklidagi bemorlar
18. KQG isitmasi endemik hududlar:
- A. Surxondaryo, Xorazm
 - B. Buxoro, Navoiy
 - C. Qashqadaryo, Sirdaryo
 - D. *Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo, Sirdaryo, Jizzax
19. Yuqumli kasalliklar boshqa kasalliklardan nimasi bilan farq qiladi?
- A. *Kasallikdan so'ng immunitet hosil bo'lishi, manbai mavjudligi
20. Vabo kasalligining qo'zg'atuvchisi:
- A. Rikketsiyalar
 - B. Bakteriyalar
 - C. Viruslar
 - D. *Vibriionlar
21. Vabo vibrioni tashuvchilarda qayerda saqlanadi?
- A. Qonda
 - B. *O't suyuqligida
 - C. Axlatda
 - D. Plazmada
22. Vabo vibriionining shakli:
- A. *Vergulsimon
 - B. Yumaloq
 - C. Uzunchoq
 - D. To'mtok
23. Karantin infeksiyalar:
- A. Sil, tepki
 - B. Gepatit
 - C. *O'lat, gemorragik isitmalar
 - D. Brutsellyoz
24. Antroponoz infeksiya bu:
- A. Hayvondan odamga
 - B. *Odamdan odamga
 - C. Havo-tomchi
 - D. Transmissiv
25. Quturish kasalligi qo'zg'atuvchisi:
- A. *Virus
 - B. Retrovirus

- C. Bakteriya
- D. Zamburug‘
- 26. Quturish yuqish yo‘li:
 - A. Qon
 - B. Najas
 - C. *So‘lak orqali
 - D. Havo-tomchi
- 27. Vabo yuqish yo‘li:
 - A. *Og‘iz–najas
 - B. Qon
 - C. Jinsiy
 - D. Havo
- 28. Vabo yashirin davri:
 - A. 1–2 kun
 - B. *2–5 kun
 - C. 1 oy
 - D. 2 oy
- 29. Xoleraning tipik ko‘rinishi:
 - A. Tifoz
 - B. Miks
 - C. Quruq
 - D. *Gastroenteritik
- 30. Quturish va kuydirgi vaktsinasini yaratgan olim:
 - A. Jenner
 - B. Botkin
 - C. Kox
 - D. *Lui Paster
- 31. Kechish shakliga ko‘ra yuqumli kasalliklar:
 - A. *Tipik va atipik
 - B. Birlamchi–ikkilamchi
 - C. Inkubatsion
 - D. Infeksion
- 32. Fagotsitoz nimani anglatadi?
 - A. Parchalanish
 - B. *Qamrab olish
 - C. Chirishi
 - D. Ko‘payish
- 33. Tabiiy immunitet qanday hosil bo‘ladi?
 - A. Nasldan
 - B. Tug‘ilgandan
 - C. *Kasallikdan so‘ng
 - D. Emlashdan so‘ng
- 34. Degidratatsiya bu:
 - A. Harorat ko‘tarilishi

- B. Qayt qilish
 - C. Qon ketish
 - D. *Organizmدا suyuqlik yo‘qotilishi
35. O‘latda ko‘proq zararlanuvchi a‘zolar:
- A. Buyrak
 - B. *O‘pka, limfa bezlari, nerv tizimi
 - C. Oshqozon
 - D. Yurak
36. O‘latning yashirin davri:
- A. 1–2 oy
 - B. *2–6 kun
 - C. 10 kun
 - D. 24 soat
37. Kuydirgi manbai:
- A. Kemiruvchilar
 - B. Kana
 - C. *Yirik va mayda shoxli hayvonlar
 - D. Odam
38. Kuydirgi yuqish yo‘li:
- A. Transmissiv
 - B. *Muloqot, og‘iz va nafas yo‘llari
 - C. Parenteral
 - D. Qon orqali
39. Kuydirgi yarasining asosiy farqi:
- A. Qora pustloq
 - B. *Og‘riqsiz, qora pustloqli, ochiq joylarda
 - C. Juda og‘riqli
 - D. Yuzaki
40. Havo-tomchi infeksiyada asosiy profilaktika:
- A. Ovqatlantirish
 - B. Emlash
 - C. *Bemorni alohidalash
 - D. Dezinfeksiya
41. Grippning inkubatsion davri:
- A. 1 hafta
 - B. Bir necha soat
 - C. *Bir necha soatdan 3 kungacha
 - D. 10 kun
42. Paragrippda zararlanuvchi a‘zo:
- A. *Burun va ko‘z kon’yuktivasi
 - B. Bronx
 - C. Burun yo‘llari
 - D. O‘pka

43. Grippda ko‘p uchraydigan shok:
- A. Travmatik
 - B. Anafilaktik
 - C. Gipovolemik
 - D. *Toksik
44. Parranda grippi manbai:
- A. Odam
 - B. *Uy parrandalari
 - C. Yovvoyi qushlar
 - D. Suv qushlari
45. Qizamiqning inkubatsion davri:
- A. 18–25 kun
 - B. *8–10 kun
 - C. 1–3 kun
 - D. 25–45 kun
46. Qizamiqning xarakterli belgisi:
- A. Papula
 - B. *Dog‘li-papulyoz toshma
 - C. Yiringli toshma
 - D. Lab ko‘karishi
47. Qizamiq yuqish yo‘li:
- A. *Havo-tomchi
 - B. Kontakt
 - C. Fekal-oral
 - D. Alimentar
48. Qizamiq, epidparotit, BSJ vaktsinasi eritilgandan so‘ng:
- A. 1 kun
 - B. *6 soat
 - C. 24 soat
 - D. 72 soat
49. Sil kasalligi yuqish yo‘li:
- A. Suv orqali
 - B. Ovqat orqali
 - C. Nasldan
 - D. *Havo-tomchi
50. Meningokokkli meningitning asosiy belgisi:
- A. *Qusish
 - B. Ich ketishi
 - C. Talvasa
 - D. Burundan suv kelishi

2- variant

1. Reinfeksiya nima?
 - A. *Mazkur qo‘zg‘atuvchi bilan qayta zararlanish
 - B. Infeksiya tashuvchanlik
 - C. Uzoq davom etadigan yuqumli kasallik
 - D. Birinchi infeksiya yo‘qolmasdan ikkinchisi qo‘shilishi
2. Patogenlik nima?
 - A. *Mikrobning kasallik qo‘zg‘atish qobiliyati
 - B. Mikrobning to‘qimalarga kirish qobiliyati
 - C. Mikrobning toksinlar ishlab chiqarish qobiliyati
 - D. Mikrobning spora hosil qilish qobiliyati
3. Bokslardan nima maqsadda foydalaniladi?
 - A. *Bemorlarni alohidalash
 - B. Bemorlar bir-birlariga kasallik yuqturmaslik
 - C. Bemorlarni bir-biridan ajratish
 - D. Bemorlarni birga joylashtirish
4. Gipertermiya nima?
 - A. *Tana haroratining ko‘tarilishi
 - B. Arterial bosimning pasayishi
 - C. Pulsning tezlashishi
 - D. Nafas olishning sekinlashishi
5. Yuqumli kasalliklarning klinik xususiyatlari qaysi javobda noto‘g‘ri yozilgan?
 - A. *Kasallikning sog‘lom odamdan yuqishi
 - B. Kasallikning avj olishi
 - C. Yashirin davri
 - D. Rekonvalessensiya
6. Epidemik jarayon nima?
 - A. Kasallikning sog‘lom odamga yuqishi
 - B. Kasallikning avj olishi
 - C. *Yuqumli kasallik qo‘zg‘atuvchilarining kishilar jamoasi orasida tarqalishi
 - D. Infeksiya tashuvchanlik
7. Antroponoz kasallik bu ...
 - A. *Faqat odamlar kasallanadigan kasallik
 - B. Odam va hayvonlar kasallanadigan kasallik
 - C. Faqat hayvonlar kasallanadigan kasallik
 - D. Qon orqali yuquvchi kasallik
8. Zoonoz kasallik bu ...
 - A. Faqat odamlar kasallanadigan kasallik
 - B. *Odam va hayvonlar kasallanadigan kasallik
 - C. Faqat hayvonlar kasallanadigan kasallik
 - D. Qon orqali yuquvchi kasallik
9. Sporadik kasallanish nima?
 - A. *Kasallikning onda-sonda uchrab turishi
 - B. Mazkur joyda kasallanishning ancha ko‘p uchrashi

- C. Faqat odamlar kasallanadigan kasallik
 - D. Mamlakatlar va mintaqalarni qamrab oluvchi katta epidemiya
10. Epidemiya nima?
- A. Kasallikning onda-sonda uchrab turishi
 - B. *Mazkur joyda kasallanishning ancha ko‘p uchrashi
 - C. Faqat odamlar kasallanadigan kasallik
 - D. Mamlakatlar va mintaqalarni qamrab oluvchi katta epidemiya
11. Pandemiya nima?
- A. Kasallikning onda-sonda uchrab turishi
 - B. Mazkur joyda kasallanishning ancha ko‘p uchrashi
 - C. Faqat odamlar kasallanadigan kasallik
 - D. *Mamlakatlar va mintaqalarni qamrab oluvchi katta epidemiya
12. Yuqumli kasalliklarning asosiy xususiyatlari:
- A. Etiologik, epidemiologik, klinik, transmissiv
 - B. *Etiologik, epidemiologik, klinik, immunologik
 - C. Etiologik, epidemiologik, klinik, biologik
 - D. Etiologik, epidemiologik, klinik, kimyoviy
13. Doimiy isitma nima?
- A. Ertalabki va kechqurungi harorat oralig‘i $2-2,5^{\circ}\text{C}$
 - B. *Ertalabki va kechqurungi harorat oralig‘i 1°C atrofida
 - C. Sutkalik harorat 38°C dan oshmaydi
 - D. Yuqori harorat normal bilan almashadi
14. Yuqumli kasallikda bemorlarni nozologik prinsip asosida yotqizish sababi:
- A. Tekshiruv osonlashadi
 - B. Davolash usullari o‘xshashligi uchun
 - C. *O‘zaro kasallik yuqmasligi uchun
 - D. B va C
15. Yuqumli kasalliklarda qanday toshmalar uchramaydi?
- A. Rozeola
 - B. Petexiya
 - C. Papula
 - D. *Barchasi uchrashi mumkin
16. Isitma turlari qaysi javobda to‘g‘ri?
- A. Doimiy
 - B. Subfebril
 - C. Qaytalama
 - D. *Barchasi to‘g‘ri
17. Invazivlik bu —
- A. Mikroorganizmlarning patogenlik darajasi
 - B. Mikroorganizmlarning kasallik qo‘zg‘atish qobiliyati
 - C. *To‘qima va a‘zolarga kira olish xususiyati
 - D. Toksin ishlab chiqarish qobiliyati
18. Subfebril haroratda —
- A. Farq 1°C dan oshmaydi

- B. To‘lqinsimon ko‘tarilib tushadi
 - C. Normal bilan almashadi
 - D. *38°C dan oshmaydi
19. Pustula bu —
- A. Terining qizarishi
 - B. *Ichida yiring bo‘lgan pufakcha
 - C. Tiniq suyuqlik bilan to‘lgan pufakcha
 - D. Tuguncha
20. Yuqumli kasallik kechishida ajratilmaydigan davr:
- A. *Zo‘riqish davri
 - B. Prodromal davr
 - C. Avj olish davri
 - D. Inkubatsion davr
21. Yuqumli kasalliklar bilan og‘rigan bemordan epidemiologik anamnez yig‘ishda so‘rash kerak bo‘lmagan savolni ko‘rsating.
- A. *Kasallikning o‘tkir yoki asta-sekin boshlanganligi
 - B. Kasallik yuqish ehtimoli bo‘lgan joylarda bo‘lganligi
 - C. Yuqumli kasallik bilan og‘rigan bemor bilan muloqotda bo‘lganligi
 - D. Boshdan kechirgan yuqumli kasalliklari
22. Yuqumli kasalliklarga xos bo‘lmagan xususiyatni ko‘rsating.
- A. *Irsiy xususiyat
 - B. Klinik xususiyat
 - C. Immunologik xususiyat
 - D. Etiologik xususiyat
23. Dezinfeksiya nima?
- A. *Kasallik qo‘zg‘atuvchilarini tashqi muhitda yo‘qotish
 - B. Hashoratlarni yo‘qotish
 - C. Kemiruvchilarni yo‘qotish
 - D. Kasal hayvonlarni yo‘qotish
24. Deratizatsiya nima?
- A. *Kemiruvchilarni yo‘qotish
 - B. Kasallik qo‘zg‘atuvchilarini tashqi muhitda yo‘qotish
 - C. Kasal hayvonlarni yo‘qotish
 - D. Hashoratlarni yo‘qotish
25. Dezinseksiya nima?
- A. *Hashoratlarni yo‘qotish
 - B. Kemiruvchilarni yo‘qotish
 - C. Kasallik qo‘zg‘atuvchilarini tashqi muhitda yo‘qotish
 - D. Kasal hayvonlarni yo‘qotish
26. Yuqumli kasalliklar kechishida qaysi davr ajratilmaydi?
- A. *Kasallikning zo‘riqish davri
 - B. Prodromal davr

- C. Kasallikning avj olish davri
 - D. Inkubatsion davr
27. Epidemiologik anamnezda soʻralmaydigan savol:
- A. *Kasallikning oʻtkir yoki asta-sekin boshlanganligi
 - B. Yuqish ehtimoli boʻlgan joylarda boʻlganligi
 - C. Yuqumli kasallik bilan muloqot
 - D. Oldin oʻtkazilgan yuqumli kasalliklar
28. Yuqumli kasalliklarga xos boʻlmagan belgi:
- A. *Irsiy xususiyat
 - B. Klinik xususiyat
 - C. Immunologik xususiyat
 - D. Etiologik xususiyat
29. Gemokultura nima?
- A. Siydikni ekish
 - B. *Qonni ekish
 - C. Najasni ekish
 - D. Oʻt suyuqligini ekish
30. Mikroorganizmlarni bevosita aniqlash usuli:
- A. Rentgenologik
 - B. Biologik
 - C. Biokimyoviy
 - D. *Bakteriologik
31. Bakterioskopik tekshirish koʻproq qaysi kasallikda ishlatiladi?
- A. *Bezgak
 - B. Virusli gepatitlar
 - C. OITS
 - D. A va B
32. Biologik tekshirish deganda nimani tushunasiz?
- A. Materialni ekish
 - B. Surtmani mikroskopda koʻrish
 - C. Anamnez yigʻish
 - D. *Materialni tajriba hayvonlariga yuqtirish
33. Agglutinatsiya reaksiyasi qaysi turga kiradi?
- A. Bakterioskopik
 - B. Bakteriologik
 - C. Biologik
 - D. *Serologik
34. Bakteriologik usul qaysi kasallikda qoʻllanilmaydi?
- A. Salmonelloz
 - B. Dizenteriya
 - C. *Quturish
 - D. Meningit
35. Qaysi reaksiya serologik reaksiyaga kirmaydi?
- A. Agglutinatsiya

- B. Presipitatsiya
 - C. Komplementni bog‘lash
 - D. *Teri-allergik
36. Teri-allergik sinama bo‘yicha noto‘g‘ri javobni belgilang.
- A. *Allergen (antigen)dan foydalaniladi
 - B. 0,1 ml yuboriladi
 - C. Bilakning kaft sohasiga qo‘yiladi
 - D. Mushak orasiga qilinadi
37. Orqa miya punksiyasi asosan qaysi kasallikda o‘tkaziladi?
- A. Vabo
 - B. *Meningit
 - C. Virusli hepatit
 - D. Dizenteriya
38. Normada orqa miya suyuqlig‘iga xos bo‘lmagan belgi:
- A. Tomchilab chiqadi
 - B. Suyuqlik loyqa
 - C. *B va D
 - D. Bosim bilan chiqadi
39. Epidemiologik anamnez orqali aniqlanadi:
- A. Ichki a‘zolar faoliyati
 - B. Laborator o‘zgarishlar
 - C. *Kasal odam yoki hayvon bilan aloqa, emlashlar, kasb
 - D. Auskultatsiya ma’lumotlari
40. Bakterioskopik usul bu —
- A. Hayvonlarga yuqtirish
 - B. Oziq muhitiga ekish
 - C. *Bo‘yalgan surtmani mikroskopda ko‘rish
 - D. Antiteloni aniqlash
41. Allergik sinama usuli bu —
- A. Agglutinatsiya bilan tekshirish
 - B. *Antigenni teri ichiga yuborib baholash
 - C. Antibiotikdan oldingi sinama
 - D. Allergik shokni aniqlash
42. Seroterapiya nima?
- A. *Zardob bilan davolash
 - B. Vaksina bilan davolash
 - C. Antibiotik bilan davolash
 - D. Vitamin bilan davolash
43. Zardob yuborishdan oldin qanday nisbatda sinama qo‘yiladi?
- A. *1:100
 - B. 1:500
 - C. 1:400
 - D. 1:800

44. Makrolidlarga kiruvchi preparatlar:
- A. Penitsillin, streptomitsin
 - B. Tetrasiklin, metasiklin
 - C. *Eritromitsin, oleandomitsin
 - D. Analgin, dimedrol
45. Tripsin va ximotripsin qanday preparatlar?
- A. Sulfanilamidlar
 - B. *Ferment preparatlar
 - C. Immunomodulyatorlar
 - D. Nitrofuranlar
46. Disbakteriozda qaysi preparatlar qoʻllanilmaydi?
- A. Laktobakterin
 - B. Bifidumbakterin
 - C. Kolibakterin
 - D. *Antibiotiklar
47. Qaysi preparatlar tuzli eritmalarga kirmaydi?
- A. Asesol
 - B. Xlosol
 - C. *Glyukoza
 - D. Disol
49. Antibiotik va oqsilli preparatlar asorati:
- A. Giperglikemiya
 - B. Gipertoniya
 - C. Ichak tutilishi
 - D. *Anafilaktik shok
50. Eubiotiklar bu —
- A. *Ichak mikroflorasini tiklovchi bakterial preparatlar
 - B. Immunomodulyatorlar
 - C. Antiprotozoy preparatlar
 - D. Dezintoksikatsion preparatlar

6.4 Amaliy koʻnikmalar.

Yuqumli bemorni qabul qilish algoritmi

Maqsad:

Yuqumli kasallik tarqalishining oldini olish va bemorga xavfsiz yordam koʻrsatish.

Jihozlar:

- Tibbiy niqob

- Qo‘lqop
- Xalat
- Termometr
- Dezinfeksiyalovchi eritma

Algoritm:

1. Hamshira maxsus himoya kiyimini kiyadi.
2. Bemorni alohida qabul xonasiga joylashtiradi.
3. Bemorning shikoyatlarini aniqlaydi.
4. Tana haroratini o‘lchaydi.
5. Epidemiologik anamnezni yig‘adi.
6. Bemorni shifokorga xabar qiladi.
7. Bemorni izolyatsiya xonasiga joylashtiradi.
8. Ishlatilgan buyumlarni dezinfeksiya qiladi.
9. Qo‘llarni antiseptik bilan ishlov beradi.
10. Qaydnomalarni to‘ldiradi.

Yuqumli bemorni izolyatsiya qilish algoritmi

Maqsad:

Infeksiya tarqalishini oldini olish.

Algoritm:

1. Bemorni alohida palataga joylashtirish.
2. Palatada individual idish-tovoq ajratish.
3. Tashriflarni cheklash.
4. Hamshira shaxsiy himoya vositalaridan foydalanadi.
5. Joriy dezinfeksiyani o‘tkazish.
6. Palatani muntazam shamollatish.

7. Bemor gigiyenasini nazorat qilish.
8. Tibbiy chiqindilarni belgilangan tartibda yo'qotish.

Bemorni izolyatsiya palatasiga joylashtirish

Maqsad:

Infeksiya tarqalishini oldini olish.

Algoritm:

1. Hamshira himoya kiyimlarini kiyadi.
2. Bemorni alohida palataga olib kiradi.
3. Individual idish-tovoq ajratadi.
4. Bemor gigiyenasini tushuntiradi.
5. Tashriflarni cheklaydi.
6. Palatani belgilaydi (ogohlantiruvchi yozuv).
7. Joriy dezinfeksiyani tashkil etadi.

Qo'llarni antiseptik bilan ishlov berish

Maqsad:

Kasallik qo'zg'atuvchilarini yo'q qilish.

Algoritm:

1. Qo'llarni sovun bilan yuvish.
2. Quruq salfetka bilan artish.
3. Antiseptik eritma olish.
4. Kaft, barmoqlar, tirnoq atroflarini ishlov berish.
5. 30 soniya davomida ishqalash.

6. Qurishini kutish.

Himoya vositalarini kiyish algoritmi

Maqsad:

Hamshirani kasbiy zararlanishdan himoyalash.

Algoritm:

1. Xalat kiyish.
2. Niqob taqish.
3. Bosh kiyim kiyish.
4. Qo‘lqop kiyish.
5. Ish tugagach belgilangan tartibda yechish.
6. Chiqindilarni maxsus idishga tashlash.

Inyeksiya oldidan xavfsizlikni ta’minlash

Maqsad:

Parenteral yuqishni oldini olish.

Algoritm:

1. Steril asboblarni tayyorlash.
2. Bir martalik shpritsdan foydalanish.
3. Qo‘llarni antiseptik bilan ishlov berish.
4. Bemor terisini spirt bilan artish.
5. Inyeksiyani bajarish.
6. Ishlatilgan ignani maxsus konteynerga tashlash.

Tibbiy chiqindilarni utilizatsiya qilish

Maqsad:

Infeksiya tarqalishini oldini olish.

Algoritm:

1. Chiqindilarni toifalarga ajratish.
2. Maxsus paketlarga joylashtirish.
3. Belgilash (yuqumli chiqindi).
4. Dezinfeksiya qilish.
5. Markazlashgan yo‘qotishga topshirish.

Nafas yo‘llari infeksiyalarida parvarish**Algoritm:**

1. Bemorni yarim o‘tirgan holatga keltirish.
2. Xonani shamollatish.
3. Ko‘p suyuqlik ichishini ta’minlash.
4. Haroratni nazorat qilish.
5. Yo‘tal gigiyenasini o‘rgatish.
6. Niqob rejimini tushuntirish.

Isitmada hamshiraning harakati**Algoritm:**

1. Haroratni o‘lchash.
2. Bemorni yotqizish.
3. Suyuqlik berish.
4. Fizik sovitish usullarini qo‘llash.
5. Shifokor buyruqlarini bajarish.
6. Holatni kuzatish.

Ichak infeksiyasida parvarish

Algoritm:

1. Bemorni izolyatsiya qilish.
2. Alohida hojatxona ajratish.
3. Suyuqlik balansini nazorat qilish.
4. Parhezga rioya qildirish.
5. Ich ketish sonini qayd etish.
6. Dezinfeksiyani kuchaytirish.

Epidemiologik anamnez yig'ish

Algoritm:

1. Oxirgi 14–21 kunni aniqlash.
2. Safar bo'lgan-bo'lmaganini so'rash.
3. Kasallar bilan muloqotni aniqlash.
4. Oziq-ovqat iste'molini aniqlash.
5. Ma'lumotlarni tibbiy hujjatga yozish.

Yuqumli bemorni kuzatish

Algoritm:

1. Umumiy holatini baholash.
2. Haroratni kuniga 2 marta o'lchash.
3. Puls va nafasni hisoblash.
4. Siydik va najasni kuzatish.
5. O'zgarishlarni shifokorga yetkazish.

Tana haroratini o'lchash algoritmi

Maqsad:

Isitma darajasini aniqlash.

Jihozlar:

- Termometr
- Spirt
- Salfetka

Algoritm:

1. Qo'llarni yuvish.
2. Termometrni dezinfeksiya qilish.
3. Termometrni qo'ltiq ostiga qo'yish.
4. 10 daqiqa kutish.
5. Natijani o'qish.
6. Natijani harorat varaqasiga yozish.
7. Termometrni yana dezinfeksiya qilish.

Dezinfeksiya o'tkazish algoritmi

Maqsad:

Kasallik qo'zg'atuvchilarini yo'q qilish.

Algoritm:

1. Himoya vositalarini kiyish.
2. Dezinfeksiya eritmasini tayyorlash.
3. Ishlatilgan buyumlarni eritmaga solish.
4. Belgilangan vaqt davomida ushlab turish.

5. Oqartirib yuvish.
6. Quritish.
7. Qo'llarni antiseptik bilan ishlov berish.

Ich ketishda hamshiraning harakati algoritmi

Maqsad:

Suvsizlanishni oldini olish.

Algoritm:

1. Bemorni yotqizish.
2. Ich ketish sonini aniqlash.
3. Suyuqlik ichishini nazorat qilish.
4. Rehidratsion eritmalar berish.
5. Tana haroratini nazorat qilish.
6. Siydik ajralishini kuzatish.
7. Shifokorga xabar berish.

1. Barcha turdagi in'eksiyalarni bajarish texnikasi.

– dori moddalari bemor organizmiga enteral(til ostiga, og'iz orkali, ichak orkali), parenteral: (nafas orkali, teri ustiga, teri ostiga, mushak orasiga, venaga, arteriyaga)

--tomir ichiga venaga dori moddasini yuborish algoritmi.

Muolaja maqsadi: dori moddasini tez va samarali bemor organizmga kiritish

Kerakli jixozlar: steril qo'lkop, shprits, spirt 70%, steril paxta, jgut, suyuk dori moddasi.

venaga dori moddasini yuborish texnikasi:

- bemorga muolaja haqida tushuntiriladi.
- dori moddasini yarokliligi ko'rinishi tekshiriladi.
- bemordan dori moddasiga allergiyasi bor yukligi so'raladi.
- toza qo'lga steril qo'lqop kiyiladi,

- yirik vena tomiri topilib yukorisidan jgut boglanadi.
- spirtga xo'llangan paxtada bir xil yunalishda tomir usti artiladi.
- steril shprits ochilib igna uchi teri osti va sekin vena ichiga kirgiziladi.
- tomirga tushilganda shprits muftasiga qon chiqadi va dori moddasini sekin-asta yuboriladi.
- dori moddasi tugagandan so'ng igna ustiga paxtani qo'yib sekin tortib olinadi.

2. Barmoqdan qon olish.

- Ish anjomlari: skarifikator , paxta ,spirt, efir, yod.

Tajriba o'tkazish tartibi.

-Qon beruvchi stolga nisbatan yoni bilan o'tirib, kaftini yuqoriga qaratgan holda qo'lini stolga qo'yadi.

- IV barmoqning oxirgi panjasi (falanga)ning terisi spirt, keyin esa efir bilan yaxshilab artiladi.

- Sanchishdan oldin teri quruq bo'lishi kerak.

- Oxirgi panjaning uchi yon tomonlaridan siqiladi va sterillangan skarifikatorning bexosdan tez harakati orqali teri teshiladi.

- Teshikning chuqurligi shunday bo'lishi kerakki ,natijada oxirgi panja uchining yonlaridan barmoqni siqmasdan qonning o'z holicha chiqishi ta'minlanishi lozim.

- Qonning birinchi tomchisi artib tashlanadi, keyingisi analiz uchun ishlatiladi. tomchi teri bo'ylab oqmasligi kerak.

Teri orasiga in'eksiya qilish

Kerakli jihozlar: kasallik tarixi – 1 ta, hamshira varaqasi – 1 ta, lotok – 1 ta

Kerakli xom ashyolar: suyuq sovun – 1ml, qog‘oz sochiq – 20 sm, steril qo‘lqop – 1 ta, shprits – 1 ta (2,5,10), 70 % li etil spirti – 1 ml, paxta sharcha – 2-3 gr, dori moddasi – 1 ta (ampula)

Bajarish algoritmi:

1. Bemor bilan ishonchli munosabat o‘rnatiladi. Bemorga muolaja maqsadi va mohiyati tutushntiriladi. Bemor roziligi olinadi.
2. Hamshira qo‘llarini yuvib, steril qo‘lqop kiyadi.
3. Bemorga dori moddasi haqida ma’lumot beriladi.
4. Shprits ga kerakli miqdorda dori moddasini tortiladi.
5. Unga zaruriy xolatni egallashiga yordam beriladi.
6. In’eksiya qilinadigan soha terisini tortiladi.
7. Igna kesimini yuqoriga qaratib teri bilan parallel qilib uchini teriga kiritiladi.
8. Ikki barmoq bilan ignani teriga bosiladi.
9. Chap qo‘lni porshenga o‘tqazing.
10. Uni bosib dori moddasini yuboriladi.
11. Spirtga ho‘llangan steril paxtani bosmasdan ignani chiqariladi.
12. Shprits ni zararsizlantiruvchi eritmaga solinadi.
13. Qo‘lqopni yechiladi.
14. Bajarilgan muolajani tibbiy hujjatlarga qayd etiladi.

Teri ostiga in’eksiya qilish

Kerakli jihozlar: kasallik tarixi – 1 ta, hamshira varaqasi – 1 ta, lotok – 1 ta

Kerakli xom ashyolar: suyuq sovun – 1ml, qog‘oz sochiq – 20 sm, steril qo‘lqop – 1 ta, shprits – 1 ta (2,5,10), 70 % li etil spirti – 1 ml, paxta sharcha – 2-3 gr, dori moddasi – 1 ta (ampula)

Bajarish algoritmi:

1. Bemor bilan ishonchli munosabat o‘rnatiladi. Bemorga muolaja maqsadi va mohiyati tutushntiriladi. Bemor roziligi olinadi.
2. Hamshira qo‘llarini yuvib, steril qo‘lqop kiyadi.
3. Bemorga dori moddasi haqida ma’lumot beriladi.
4. Shprits ga kerakli miqdorda dori moddasini tortiladi.
5. Bemordan to‘siq bilan o‘rash kerakligi yoki yo‘q so‘raladi.
6. Unga zaruriy xolatni egallashiga yordam beriladi.
7. In‘eksiya qilinadigan soha terisini spirt bilan artiladi.
8. Ikkita paxta sharcha bilan ketma-ket artiladi (avval maydonni so‘ng In‘eksiya qilinadigan sohani).
9. In‘eksiya qilinadigan sohani chap qo‘l bilan ushlanadi.
10. Ignani 450 burchak ostida ushlab burmalangan terining yuza qismiga 1,5 mm chuqurlikda kiritiladi.
11. Barmoq bilan ignaning konyulasidan ushlab turiladi.
12. Chap qo‘lni porshenga o‘tkazib dori moddasini yuboriladi.
13. Shprits ni qo‘ldan qo‘lga o‘tkazmaslikka harakat qilinadi.
14. Ignani konyulasidan ushlab chiqariladi.

15. Teshilgan sohaga spirtga namlangan steril paxta bosiladi.
16. Paxta bilan in'eksiya Bajarilgan sohani sekin uqalanadi.
17. Muolajadan so'ng bemor o'zini yaxshi xis qilayotganligiga ishonch hosil qilinadi.
18. Qo'llar yuviladi, zararsizlantiriladi.
19. Bajarilgan muolaja tibbiy hujjatlarga qayd etiladi.

Mushak orasiga in'eksiya qilish

Kerakli jihozlar: kasallik tarixi – 1 ta, hamshira varaqasi – 1 ta, lotok – 1 ta

Kerakli xom ashyolar: suyuq sovun – 1ml, qog'oz sochiq – 20 sm, steril qo'lqop – 1 ta, shprits – 1 ta (2,5,10), 70 % li etil spirti – 1 ml, paxta sharcha – 2-3 gr, dori moddasi – 1 ta (ampula)

Bajarish algoritmi:

1. Bemor bilan ishonchli munosabat o'rnatiladi. Bemorga muolaja maqsadi va mohiyati tutushntiriladi. Bemor roziligi olinadi.
2. Hamshira qo'llarini yuvib, steril qo'lqop kiyadi.
3. Bemorga dori moddasi haqida ma'lumot beriladi.
4. Shpritsga kerakli miqdorda dori moddasini tortiladi.
5. Bemordan to'siq bilan o'rash kerakligi zarur yoki yo'qligini so'raladi.
6. Unga zaruriy xolatni egallashiga yordam beriladi (qorinda yoki yonboshlash).
7. In'eksiya qilinadigan soha terisini spirt bilan 2 martalab artiladi.
8. In'eksiya qilinadigan sohani fiksatsiya qilinadi.
9. Ignani 2-3 mm teri ustida ushlab 90 gradus burchak ostida mushakka kiritiladi.

10. Chap qo'lni porshenga o'tkazib dori moddasini yuboriladi.
11. Ilitlgan moyli eritmani kiritishdan oldin porshenni yuqoriga tortiladi.
12. Shpirtsiga qon tushmayotganligiga ishonch hosil qilinadi va shundan so'ng eritma yuboriladi.
13. Ignani odatdagidek chiqariladi.
14. Paxtani teridan olmasdan turib in'eksiya bajarilgan sohani sekin uqalanadi.
15. Qo'lqop yechiladi.
16. Muolajadan so'ng bemor o'zini yaxshi xis qilayotganligiga ishonch hosil qilinadi.
17. Qo'llar yuviladi, zararsizlantiriladi.
18. Bajarilgan muolaja tibbiy hujjatlarga qayd etiladi.

Qon bosimini o'lchash texnikasi.

- Qon bosimi tinch holatda, 5 daqiqa dam olgandan (agarda undan oldin jismoniy yoki ruhiy zo'riqish holatlari kuzatilgan bo'lsa 15-30 daqiqadan keyin) so'ng o'lchanadi;
- O'lchash vaqtida tekshiriluvchi o'ziga qulay holatda, kaftlarini tepaga qaratgan holda qo'llarini stol ustiga cho'zib o'tirgan yoki to'shakda yotgan bo'lishi lozim;
- Tanometr manjeti yalong'ochlangan tirsak bo'g'imidan 2 sm yuqoriga o'ralib yurak satxiga to'g'ri kelishi zarur;
- Kiyim manjeta o'ralgandan yuqori sohani siqib turmasligi kerak;
- Qon bosimini o'lchashdan oldin tekshirilayotgan kishi bir soat davomida achchiq choy, qaxva ichmasligi, 30 daqiqa davomida sigaret va nosvoy chekmasligi lozim;
- Tanometr manjetiga havo haydashdan oldin tirsak chuqurchasi sohasida tomir urishini aniqlab fonendoskopni shu joyga qo'yish kerak;

-Havo haydash qopchasidagi buragichni maxkam yopib, qopchani ketma-ket ravishda bir necha marotaba siqib manometrغا havo yuborish va ushbu jarayonni tirsak chuqurchasida tomir urishi yo‘qolgandan so‘ng bosim yana 30 mm simob ustuniga oshganga qadar davom ettirish lozim.

- Bosimni o‘lchashdan oldin manometr strelkasi 0 da turishi kerak; Undan so‘ng manjetadagi havo sekin astalik bilan 1 soniyada 20 mm simob ustuni darajasida chiqarilib ayni paytda fonendoskop bilan tirsak chuqurchasi ustida yelka arteriyasi tonlari eshitib borilishi zarur;

-Elka arteriyasi ustida ilk dukullagan tovush (tonlar)ning paydo bo‘lishi (1 bosqich) – qon bosimining yuqori darajasi (sistolik) ko‘rsatkichi hisoblanadi);

Yelka arteriyasi ustida so‘nggi dukullagan tovush (tonlar)ning yo‘qolishi (2 bosqich) – qon bosimining pastki darajasi (diastolik) ko‘rsatkichi hisoblanadi;

-Bosim 1-2 daqiqa va undan ko‘proq tanaffus bilan kamida 2 marotaba o‘lchanishi lozim, mabodo ko‘rsatkichlar bir-biridan keskin farq qilsa 3 va 4 marotaba o‘lchab ko‘riladi va ulardan «o‘rtacha»si tekshiruv natijasi deb hisoblanadi

Markaziy venoz bosimni o‘lchash.

Kerakli jihozlar: steril qo‘lqop, sistema, fiziologik eritma, shtativ, paxta.

Bemorga muolaja xaqida tushuntiriladi.

Bemor tanasi bir xil tekislikda yotkiziladi. Sababi organizmdagi suyuqliklar bir xil taqsimlanishi kerak.

Bemor yuzi katetr kirgiziladigan tomonga qarshi tarafga qaratiladi.

Shifokor tavsiyasi bilan bemor kuragi ostiga yostikcha yoki sochik quyiladi.

Hamshira qo‘llarini olti etapda yuvib steril kulkop kiyiladi.

Muolaja uchun steril stol tayyorlaydi.

Steril stolga: nabor, spirt, yod, novokain 0.5%, shprits, suyuq dori, leykoplaster,

Xamshira kerakli anjomlarni shifokorga uzatib turadi.

Termometriya.

Kerakli jihozlar: termometr, toza salftka, soat, kasallik tarixi, sochiq

Bemorga muolaja xakida tushuntiriladi.

Termometrni bemorga berishdan oldin mushak osti chukurchalari kuzdan kechirish va kuritish kerak.

Termometr kutisidan steril mato bilan olinadi, okib turgan suvda yuviladi va kuritiladi.

Termometr simob ustuni 35*S belgisigacha tushkunigacha silkitiladi.

Termometr kultik ostiga kuyilganda yelka suyagi kukrak tomonga bosiladi.

10 minutdan sung termometr olinadi va natija kuriladi.

Puls tezligini hisoblash

Kerakli jihozlar:sekundomerli soat, ruchka, tomir urishning grafik tasvirini qayd qiluvchi 004 – shakl varaqa, kasallik tarixi, sochiq yoki salftka.

Kerakli asboblari:sekundomerli soat.

Muolajani bajarish texnikasi:

1.Pulsni bilak oldi yuzasida bir barmoq asosida bilan arteriyasidan aniqlaniladi.

2.Muskullar va paylar tarangligi paypaslashga xalaqit bermasligi uchun ayolning qo‘li bo‘sh qo‘yiladi.

3.Tekshiruvchi ayolning qo‘lini o‘ng qo‘lning barmoqlari bilan bilak – kaft bo‘g‘imi sohasida bo‘shgina ushlanadi va o‘ng qo‘l bilan tekshiruvchining yuragi satxiga qo‘yiladi.

4.Birinchi barmoqni tirsak tomoniga, 2-3-4 barmoqlar esa bilak tomoniga bosiladi.

5.Pulsatsiya qilayotgan arteriyani uchala barmoq bilan paypaslab, uni bilak suyagining ichki tomoniga bosiladi.

6.Tomir urishini kamida 30 sekund sanab, olingan raqam 2 ga ko'paytiriladi.

Eslatma: Pulsning sekinlashuvi bradikordiya, tezlashuvi taxikardiya deyiladi.

Pulsni – chakka, son va uyqu arteriyasidan aniqlash mumkin.

Pulsni tezlashgnligi ko'p xolatlarda ichki a'zolarda qon ketayotganligini yoki xaroratni ko'tarilganligini bildiradi.

Defibrillyatsiya o'tkazish texnikasi

Maqsad: talabalarga defibrillyatsiya o'tkazish texnikasini o'rgatish

Ko'rsatma: qorinchalar fibrillyatsiyasi

Kerakli anjomlar: defibrillyator, elektr o'tkazuvchi gel

Bajarish bosqichlari:

Bemorga umumiy yondashish

Bemorni tug'ri xolatda joylashtirish

Elektroimpuls terapiya shart -shoritlariga rioya qilish kerak: reanimatsiya qatnashchilaridan xech biri bemor krovatiga tegishi kerak emas.

Elektroimpuls terapiya texnikasiga rioya qilish kerak.:Defibrillyatorning bir elektrodi tushning ung yoni , yuqori soxasi umrov ostiga, ikkinchi elektrod qo'ltik osti urta chizig'i buyicha chap surgichning lateral tomoniga o'rnatiladi.

Kukrak soxasi yueasi elektrutkazuvchi gel yoki tuzli eritmaga botirilsa doka bilan ishlov beriladi.

Nafas olishni hisoblash:

Kerakli anjomlar: Sekundomer. 2.F-003. 3.F-004.

- Nafasni sanash uchun bemor karavotda
- Bemorning ko'krak qismida qalin kiyimlar bo'lmasligi kerak
- Bemor oldida joylashib o'tirib, uning fikrini gap bilan chalg'itasiz.
- Shu bilan bir qatorda qo'lingizni uning puls urushini aniqlamoqchi bo'lganday ushlaysiz.
- O'zingiz esa sekundomerni bilgilaysiz
- Ko'zingiz bilan bemorni ko'krak qafasi har biri ko'tarilib, tushish harakatini sanaysiz.
- Nafas harakati 1minut davomida sanaladi va F-003 hujjatidagi F-004 hujjatiga yozib qo'yiladi.

Traxeostomiya va konikotomiyani bajarish uchun kerakli asboblarni tayyorlash

Traxeostomiya jarroxlik amaliyoti quyidagi asboblardan yordamida bajariladi:

O'tkir tig'li anotomik jarrohlik pinseti, bir nechta tishli va tishsiz jarohat kengaytirgichlar, turli hajmdagi qisqichlar, elevator, o'tkir ilgak, Trusso traxeya kengaytirgichi, jarrohlik ignalar, shprits, traxeya naychalari, steril salftka.

Traxeyani intubatsiya qilish uchun bemorni tayyorlash:

Kerakli anjomlar: laringoskop va uning klinoklari, endotraxeal naychalar va o'tkazgichlar, kislorodga ulangan niqobli nafas qopchasi, so'rg'ich salftkalar, shprits, leykoplastir, fonendoskop, larengial qisqichlar, havo o'tkazgich.

Traxeyani intubatsiya qilish texnikasi:

- bemorga umumiy yondoshiladi.
- Kerakli asboblarni ishchi stolga tayyorlanadi.

-traxeya intubatsiyasining 2 xil usuli bo'lib, 1-usul bemorlar faol, es-hushi saqlangan holatda bajariladi.

-klassik Djekson holatida bosh ortga keskin qayirilgan va bosh ostiga 6-8 sm qalinlikdagi yostiqcha qo'yiladi.

-15-20 soniya orqali davomida, nafas qopchasi yordamida kislorod ingalyatsiyasi ostida tezlatilgan sun'iy nafas beriladi.

-o'ng qo'li bilan bemorning og'zi tezda ochiladi.

-laringoskopni dastasidan chap qo'l bilan ushlanadi va o'roqchasini og'iz bo'shlig'iga og'izning o'ng burchagidan kiritib, tilni chapga shunday so'riladiki, bu bilan og'iz bo'shlig'ini ko'rish imkoniyati bo'lsin.

-laringoskopni o'rta chiziq bo'ylab ichkari kiritiladi

-ko'rish maydonida avval yumshoq tanglay tilchasi, so'ngra tomoq usti tog'ayi va til ildizi o'rtasidagi chuqurchasiga joylashtiriladi.

-o'ng qo'lga traxéal naychani olib, og'izning o'ng burchagidan og'izga kiritiladi.

So'ngra og'iz halqumga o'tkazilib, ovoz yorig'idan traxeyaga kiritiladi.

-intubatsion naycha ovoz boylamlari orasidan o'tkazib manjeta boylamlar ortidan ko'rinmay qolgunicha kiritiladi.

-laringoskop chiqaziladi, shpritsga havo to'ldirib manjetka ishiriladi.

-hamshira algoritm ketma-ketligida anesteziolog vrachga asboblarni uzatib turadi.

-endotraxéal naycha chiqib ketmasligi va bemor tishlab olmasligi uchun zich doka tamponi o'rnatiladi va leykoplastirda maxkamlanadi

Shokda kechiktirib bo'lmaydigan yordam tadbirlarini o'tkazish

- nafas yullari utkazuvchanligini tiklash;

-kon ketishini vaktinchalik tuxtatish;

- Organizm to'qimalarining izolyatsiyasi
- nafas yo'llari o'tkazuvchanligini tiklash va SO'V o'tkazish
- Kislorodterapiya
- Barcha tashqi qon ketishni to'xtatish
- Oyoqlarni 20-30 sm balandlikka ko'tarish lozim. Agarda bemorda chanoq, oyoqlar, bosh, ko'krak qafasi, qorin, bo'yin va umurtqa pog'onasida jiddiy shikastlanishi kuzatilsa, u holda bemorni chalqancha yotkizgan holatda ushlab turish kerak.
- Agar suyak va bo'g'im jarohatlanganligiga shubha paydo bo'lsa, darhol shinalarni qo'yish kerak immobilizatsiya qilish;
- jaroxatlangan bemorni tezda yaqin tibbiyot muassasiga olib borib ogriksizlantirish zarur.

2.Anafilaktik shokda yordam ko'rsatish algoritmi.

1. Organizmga allergen kirishini to'xtatish lozim (antibiotiklar, venaga yuboriladigan, teriga surtiladigan, ichiladigan dorilarni to'xtatish).
2. Agar zaxarli gazanda chaqqan bo'lsa yuqoriroqdan tasma tortiladi, gazanda chaqqan soxaga 0,1 % li 0,2- 1 ml adrenalin qilinadi.
3. Hidrokortizon 3-5ml m/o .
4. Kordiamin 2ml m/o.
5. Eufillin 2,4 %li -10 ml v/i sekin yuboriladi.
6. Suprastin 2%li 2 ml m/o.

3.Komada kechiktirib bo'lmaydigan yordam tadbirlarini o'tkazish

- tulik tinchlikni ta'minlash;
- boshga sovuk kuyish;
- tez yordam mashinasini chakirish, kasalxonaga gospitalizatsiya qilish;

Gipoglikemik komada yordam ko'rsatish algoritmi.

- Bemorni iloji boricha yotqizib, tinchlantirish kerak.

- 1 stakan shirin choy va non beriladi.
- Qand yoki konfet shimishga beriladi.
- Bemor yiqilgan bo'lsa, jaroxatlar bog'lanadi.
- Bemor bexush bo'lsa 40 ml-40% glyukoza v/it.

Ovqat hazm qilish tizimi holatini baholash(qusish, ich kelishi, qorin dam bo'lishi):

Kerakli jihozlar: lotok – 1 ta, fonendoskop – 1 ta, sekundomer – 1 ta, chizg'ich – 1 ta, baholash varaqasi – 1 ta

Kerakli anjomlar: suyuq sovun – 1ml, qog'oz sochiq – 20 sm, steril qo'lqop – 1 ta, paxta sharcha – 2- 3 gr

Bajarish algoritmi:

1. Bemor bilan ishonchli munosabat o'rnatiladi.
2. Muolaja mohiyati va ketma-ketligini tushuntiriladi.
3. Bemordan muolajaga roziligini olinadi.
4. Kerakli jihozlar tayyorlanadi.
5. Hamshira qo'llari yuviladi va quritiladi.
6. Suxbatlashishga qulay joy tayyorlanadi.
7. Bemorning shikoyatlari asosida muammolari aniqlanadi.
8. Og'iz bo'shlig'ining shilliq qavati, til, milk va tishlar ko'zdan kechiriladi.
9. Qorin sohasidagi terining patologik o'zgarishlar (sariq, pigmentatsiya), yaralar, jarrohlik amaliyotidan keyingi chandiqlar, venalar yo'g'onlashuvi, qorin konturlari, o'simtasimon hosilalar, qorin shishishi (kindikning tashqariga chiqishiga, botishiga

va qorin pastki qismi shishiga e'tibor berish) bilan kechadigan holatni, axlat ajralishi (rangi, hidi, tarkibi) ni kuzatiladi.

10. Qorin bo'shlig'i devorlari harakati va qorin aortasi pulsatsiyasini tekshirish uchun ko'zlar qorin darajasida bo'lishini ta'minlagan holda o'tiriladi va qorin aortasi pulsatsiyasini (qorin yuqori qismining oldingi o'rta chizig'idan 1-2 sm chapda) hamda ichak peristaltikasi kuzatiladi. Ushbu jarayonlarda me'yoridan ortiq faollashish mavjudligini tekshirish.

11. Ovqat hazm qilish a'zolari tizimini auskultatsiya qilish va baholash.

Ichak peristaltikasi tovushlari 5-15 soniyada 1 marta eshitilishi me'yoriy holat hisoblanadi.

Peristaltika tovushlari yo'nalishlari yo'qolishini aniq qayd etish uchun auskultatsiyani 5 daqiqadan ortiq vaqt davomida kuzatish kerak.

12. Qorin bo'shlig'ini perkussiya qilish va ovqat hazm qilish a'zolari tizimini baholash.

Qorin bo'shlig'ining yengil tarzdagi perkussiyasi butun qorin bo'shlig'i sohasi bo'ylab amalga oshiriladi.

Jigar va taloq kattalashuvini aniqlash: jigar kattalashuvi va shakli individual xarakterga ega. Perkussiyani o'ng o'mrov chizig'idan boshlab tovush jarangdorligi bo'g'iqlik holatga o'tadigan joyda ya'ni, o'pka va jigar chegarasiga belgi qo'yiladi. Keyin perkussiyani o'rta o'mrov chizig'ida pastdan yuqoriga tartibida amalga oshirib, timpanik tovush bo'g'iqlik tovushga aylanadigan joyda, yani ovqat hazm qilish yo'llari va jigar chegarasida belgi qo'yiladi va ular o'rtasidagi masofa o'lchanadi. Agar masofa 12 sm dan kam bo'lsa jigarda kattalashuv yo'qligi.

Taloq kattalashuvini tekshirishda Traube uchburchagi (chap tomon oldingi chizig'i va VI qovurg'alar oralg'i, shuningdek, qovurg'a do'ngligi sohasi). Timpanik tovush chiqsa taloq kattalashgani haqidagi taxmin yo'qqa chiqadi, agar bo'g'iqlik tovush chiqsa

taloq kattalashgani haqidagi taxmin kuchayadi, shuning uchun ham palpatsiya o'tkazish zarur.

Jigar va taloqni tekshirishda og'riq paydo bo'lishi.

Jigar va taloq kattalashuvi yoki yallig'lanishida har bir a'zo ustidagi teri qismiga urib ko'rish kerak, chunki bunda paydo bo'ladigan tebranishlar natijasida bemor og'riqdan shikoyat qiladi. Asosan (o'ng) qo'lni musht qilib tugiladi, boshqa qo'l esa perkussiya joyiga qo'yiladi, so'ngra asosiy qo'l bilan yordamchi qo'lning yuza qismiga urib ko'riladi.

13. Ovqat hazm qilish tizimi a'zolari palpatsiyasini o'tkazish va baholash.

Palpatsiya oxirgi navbatda o'tkaziladi. Agar bemor qorin og'rig'idan shikoyat qilsa, unda palpatsiya natijasida olinadigan ma'lumot katta ahamiyatga ega bo'ladi. kuchli og'riq sohasini oxirgi navbatda palpatsiya qilish zaruriy qoidalaridan biri hisoblanadi. Qorin devorlari kuchlanishini kamaytirish uchun ikkala tizzani bukish va og'iz orqali nafas olish kerak.

Yuzaki palpatsiya: yuzaki peritonitning belgilari – qorin devolari taranglashishi, mushaklar himoyasi mavjudligini aniqlash uchun o'tkaziladi. Asosiy (o'ng) qo'l barmoqlarini jipslashtirish va qorin bo'shlig'i sohasi palpatsiyasini amalga oshiriladi.

- Palpatsiya davomida chegaralangan og'riq va qo'lni darhol olish natijasida og'riq paydo bo'lishi (Blyumberg simptomi).
- Oshqozon va 12 barmoqli ichak yaralarida bosilgan joylarda og'riq seziladi (epigastral sohasi, qovurg'a sinishida singan soha).

14. Ko'ngil aynish va qusishda bemorni kuzatish.

- Ko'ngil aynish va qusish mavjud bemorlarni aniqlanadi va quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:
- Ko'ngil aynishi va qusishda suhbat (intervyu), ko'rik, palpatsiya va auskultatsiya o'tkaziladi.
- Qusish massasi kuzatiladi va baholanadi.

15. Hamshira qo'llari yuviladi va quritiladi.

16. Kuzatuv va baholash natijalarini qayd etib boriladi.

Oshqozon va ichakni kasalliklari xurujida qorin bo'shlig'ini paypaslab tekshirish (palpatsiya)

Kerakli jihozlar: lotok – 1 ta, baholash varaqasi – 1 ta

Kerakli xom ashyolar: suyuq sovun – 1ml, qog'oz sochiq – 20 sm, steril qo'lqop – 1 ta

Bajarish algoritmi:

1. Bemor bilan ishonchli munosabat o'rnatiladi.
2. Muolaja mohiyati va ketma-ketligini tushuntiriladi.
3. Bemordan muolajaga roziligini olinadi.
4. Kerakli jihozlar tayyorlanadi.
5. Hamshira qo'llari yuviladi va quritiladi.
6. Suxbatlashishga qulay joy tayyorlanadi.
7. Yuzaki paypaslash:
8. Bemorning o'ng tomonida o'tiriladi
9. Tekshiruvchi qo'lini bemor qorniga kaftning ichki tomoni bilan to'liq qo'yadi va shu soxada og'riq borligini va qorin devori qarshiligini aniqlaydi
10. Qorin palpatsiyasini chap yonbosh sohasidan boshlab so'ngra, o'ng yonboshga o'tiladi va shu taxlitda simmetrik joylarni paypaslab, solishtirib aniqlab boriladi.
11. Hamshira qo'llari yuviladi va quritiladi.

12. Kuzatuv va baholash natijalarini qayd etib boriladi.

Eslatma: o‘tkir appenditsitda yuzaki palpatsiya o‘tkir og‘riq va o‘ng yonboshda qorin mushaklarining keskin qarshiligi aniqlanadi. O‘tkir peritonitda butun qorin sohasida o‘tkir og‘riq, qorin devorlari taranglashishi, mushaklar himoyasi mavjudligi aniqlanadi.

1. Oshqozonni zondlash va yuvish texnikasi:

Kerakli jihozlar:yo‘g‘on me‘da zondi, 1 litr hajmdagi voronka, chelak, krujka, xona haroratidagi 10 – 12 litr suv (yoshga qarab), yuvindi suvlar uchun tog‘ora, lotok.

Kerakli anjomlar: doka salfetaklar, rezina qo‘lqoplar, zararsizlantiruvchi eritma, quruq xlorli ohak, sochiq, fartuk 2ta.

Bajarish algoritmi :

1. Bemor bilan kommunikativ aloqa o‘rnatib, muolaja mohiyati va maqsadi tushuntiriladi va uning roziligi olinadi.
2. Muolajani o‘tkazishga moneliklar yo‘qligi aniqlanadi.
3. Zondning me‘daga kiradigan qismi aniqlanadi: bunda qoziq tishlardan kindikkacha bo‘lgan masofa olinib, unga bemorning kaft uzunligi qo‘shiladi.
4. Bemorni stulga, orqasini stul suyanchig‘iga mahkam suyantirib o‘tkaziladi.
5. Bemorda tish protezlari bo‘lsa, olib qo‘yishi so‘raladi.
6. Bemor boshini ozgina oldinga engashtiriladi.
7. Bemorning oldiga fartuk taqib, oyoqlari ostiga tog‘ora qo‘yiladi.
8. Muolajani bajaruvchi ham fartuk taqadi va rezina qo‘lqoplarni kiyadi.

9. Bemorning o'ng tomonida turib, og'zini ochish so'raladi.
10. Zondning o'tmas tomonini suv yordamida ho'llanadi.
11. Zondni o'tmas tomonidan 10 sm uzoqlikda ushlab, uchini til ildiziga qo'yiladi.
12. Ehtiyotlik bilan zondni belgigacha me'daga kiritiladi. Bemor bu vaqtda yutish harakatlarini qilib, burni orqali chuqur- chuqur nafas oladi.
13. Voronkani bemor tizzalarigacha tushurib, me'da ichidagilari chiqariladi.
14. Voronkaga to'ldirib suv solinadi. Bir marta yuboriladigan suvning miqdori taxminiy me'da hajmiga, ya'ni 1 litrga teng bo'lishi mumkin.
15. Asta – sekin voronka ko'tariladi.
16. Voronkani bemor tizzalsidan pastroqqa tushurib, ichidagi suvni tog'oraga to'kiladi.
17. Yuvishni toza suv chiqquncha davom ettiriladi.
18. Zondni sochiq orqali ehtiyotlik bilan chiqarib olinadi.
19. Zond va voronkani zararsizlantiruvchi eritmaga yoki qaynatish uchun mo'ljallangan kastyulkaga solinadi.
20. Bemor og'zi atroflarini salfetka bilan artib, og'zini chayish uchun suv beriladi.
21. Bemorning jismoniy va ruhiy xotirjamligi ta'minlanadi.
22. Yuvindi suvlarning birinchi porsiyasidan 200 ml ni tahlil qilish uchun bakteriologik laboratoriyaga yuboriladi (vrach ko'rsatmasiga binoan)
23. Me'dadan chiqqan yuvindi suvlar zararsizlantiriladi (1: 5 nisbatda quruq xlor ohagidan sepiladi).
24. Parvarish jihozlari va himoya kiyimlarini almashtirib zararsizlantiriladi.

Eslatma:

- Yuvindi suvlar tarkibida qon laxtalari ko‘rinsa, zondlashni to‘xtatib, darhol vrach xabardor qilinadi.
- Agar me‘dani zondlashni zaharlanishdan so‘ng bir necha soat o‘tgandagina bajarilsa, yuvishni zond orqali me‘daga 25%li magniy sulfat-tuzli surgidan 60 ml yuborish bilan tugatiladi.
- Zond yutishning iloji bo‘lmaganda me‘da zondsiz yuviladi. Bunda 1-2 litr sodali suv ichirilib, til ildizi ta’sirlantirilib, qustiriladi.

6.5 YAKUNIY ATTESTATSIYA UCHUN VAZIYATLI MASALALAR

Bilet №1

1.masala:

3 yoshli bola 10 kundan beri yo‘tal bilan kasal. Dastlab tumov va yengil isitma bo‘lgan. So‘nggi 5 kun ichida yo‘tal xurujlari kuchaygan. Yo‘tal paytida bola ketma-ket 10–15 marta yo‘talgach, chuqur nafas oladi va hushtaksimon ovoz (“repriza”) eshitiladi. Ba‘zan yo‘tal oxirida qusadi. Tana harorati 37,3°C. Ko‘rikda: yuz qizaradi, yo‘tal vaqtida til chiqarib yo‘taladi, ba‘zan ko‘zida qon quyilish (subkon’yunktival gemorragiyalar) bor.

Savollar:

1. Taxminiy tashxis nima?
2. Kasallik qo‘zg‘atuvchisi nima?
3. Kasallikning qaysi davri kuzatilmoqda?
4. Davolash tamoyillari qanday?

2.Masala:

10 yoshli bola 5 kundan beri holsizlik, ishtaha yo‘qligi, ko‘ngil aynishi va qusishdan shikoyat qiladi. Tana harorati 38°C gacha ko‘tarilgan. 2 kundan beri siydigi to‘q rangga kirgan, najasi oqarib qolgan. Ko‘z oqi va terisi sarg‘aygan.

Obyektiv ko‘rikda:

- Teri va sklera ikterik
- Jigar 2–3 sm kattalashgan, og‘riqli
- Taloq biroz kattalashgan

Savollar:

1. Taxminiy tashxis nima?
2. Kasallik qo'zg'atuvchisi nima?
3. Kasallikning qaysi davri?
4. Davolash tamoyillari qanday?

Bilet№2

1.Masala:

35 yoshli erkak bemor 1 kun oldin uy sharoitida tayyorlangan konservalangan qo'ziqorin iste'mol qilgan. 12–18 soatdan so'ng ko'ngil aynishi, qusish, qorin og'rig'i va ich ketish kuzatilgan. Keyinchalik ko'z oldi xiralashishi, ikki ko'rish (diplopiya), og'iz qurishi va yutish qiyinlashuvi paydo bo'lgan.

Ko'rikda:

- Harorat normal ($36,8^{\circ}\text{C}$)
- Qorachiq kengaygan (midriaz)
- Nutq noaniq
- Mushaklar kuchsizligi
- Nafas olish yuzaki

Savollar:

1. Taxminiy tashxis nima?
2. Kasallik qo'zg'atuvchisi nima?
3. Patogenezining asosiy mexanizmi qanday?
4. Shoshilinch yordam qanday ko'rsatiladi?

2.masala:

7 yoshli bola qorin og'rig'i, ishtaha pasayishi, kechasi anus atrofida kuchli qichishishdan shikoyat qiladi. Onasining aytishicha, bola bezovta uxlaydi va tunda tishini g'ijirlatadi. Tana harorati normal.

Ko'rikda:

- Teri biroz oqarib ketgan
- Qorin yumshoq, kindik atrofida og'riq
- Qon tahlilida yengil eozinofiliya

Perianal sohadagi surtma tekshiruvda gelmint tuxumlari aniqlangan.

Savollar:

1. Taxminiy tashxis nima?
2. Qo'zg'atuvchisi qaysi parazit?
3. Yuqish yo'li qanday?
4. Davolash va profilaktika choralari qanday?

Bilet №3

1.masala:

32 yoshli erkak chorvador 3 haftadan beri tana harorati 38–39°C gacha ko'tarilishi, kuchli terlash (ayniqsa kechasi), holsizlik va bo'g'imlarda og'riqdan shikoyat qiladi. Ishtahasi pasaygan.

Anamnezda: xom sut va sut mahsulotlarini iste'mol qilgan.

Ko'rikda:

- Teri nam (ko'p terlaydi)
- Jigar va taloq biroz kattalashgan
- Limfa tugunlari kattalashgan

Savollar:

1. Taxminiy tashxis nima?
2. Qo'zg'atuvchisi nima?
3. Yuqish yo'li qanday?
4. Davolash tamoyillari qanday?

2.masala:

25 yoshli ayol 8–10 soat oldin to'yda mayonezli salat va yarim pishgan tovuq go'shti iste'mol qilgan. Shundan so'ng ko'ngil aynishi, qayt qilish, qorin og'rig'i va ko'p marotaba ich ketish (suyuqlik, yashil rangli, badbo'y) paydo bo'lgan. Tana harorati 38,5°C.

Ko'rikda:

- Holsizlik
- Tili quruq
- Qorin paypaslaganda og'riqli (ayniqsa kindik atrofida)
- Puls tezlashgan

Savollar:

1. Taxminiy tashxis nima?
2. Qo'zg'atuvchisi nima?
3. Kasallikning qaysi klinik shakli kuzatilmoqda?
4. Davolash tamoyillari qanday?

Bilet №4

1.masala:

30 yoshli erkak 3 oydan beri davom etayotgan holsizlik, vazn yo'qotish (8 kg), uzoq davom etuvchi ich ketish va kechasi kuchli terlashdan shikoyat qiladi. So'nggi haftalarda og'iz bo'shlig'ida oq qoplamalar (kandidoz) paydo bo'lgan.

Anamnezda: tartibsiz jinsiy aloqa bo'lgan.

Ko'rikda:

- Tana harorati 38°C
- Limfa tugunlari kattalashgan
- Og'iz bo'shlig'ida oq qo'tir (kandidamikoz)
- Umumiy holsizlanish

Savollar:

1. Taxminiy tashxis nima?
2. Qo'zg'atuvchisi nima?
3. Kasallik qaysi bosqichda?
4. Davolash tamoyillari qanday?

2.Masala:

8 yoshli bola 2 kundan beri isitma (38–38,5°C), quloq oldi sohasida shish va og'riqdan shikoyat qiladi. Ovqat chaynaganda og'riq kuchayadi. So'lak ajralishi kamaygan.

Ko'rikda:

- Quloq oldi (parotid) bezlari kattalashgan va og'riqli
- Teri usti qizarmagan
- Og'iz ochish biroz og'riqli
- Umumiy holati o'rtacha og'ir

Savollar:

1. Taxminiy tashxis nima?
2. Qo'zg'atuvchisi nima?
3. Yuqish yo'li qanday?
4. Asoratlari qanday bo'lishi mumkin?
5. Davolash tamoyillari qanday?

Bilet№5

1.masala:

42 yoshli erkak 3 oydan beri holsizlik, tez charchash, o'ng qovurg'a ostida og'irlik hissi va ishtaha pasayishidan shikoyat qiladi. Tana harorati normal. Anamnezida 5 yil oldin qon quyish amaliyoti bo'lgan.

Ko'rikda:

- Teri va sklera biroz sarg'ish
- Jigar 2 sm kattalashgan
- Taloq kattalashmagan

Savollar:

1. Taxminiy tashxis nima?
2. Qo'zg'atuvchisi nima?
3. Yuqish yo'llari qanday?
4. Qanday asoratlar rivojlanishi mumkin?
5. Davolash tamoyillari qanday?

2.Masala:

5 yoshli bola 2 kundan beri isitma ($37,8-38,5^{\circ}\text{C}$), tomoq og'rig'i va bo'g'izda noqulaylikdan shikoyat qiladi. Onasining aytishicha, bola ovqat yeyayotganda og'riydi va ozgina ishtahasi kamaygan.

Ko'rikda:

- Tonsillalarda va faringeal sohada oq-sariq qoplama (pseudomembrana)
- Boyun limfa tugunlari kattalashgan ("boyun yo'ldoshlari")
- Tana harorati 38°C
- Puls tezligi 110/min

Savollar:

1. Taxminiy tashxis nima?
2. Kasallik qo'zg'atuvchisi nima?
3. Yuqish yo'li qanday?
4. Asoratlari qanday bo'lishi mumkin?
5. Davolash tamoyillari qanday?

Bilet№6

1.masala:

27 yoshli ayol 2 kundan beri yuqori harorat (39°C), bosh og'rig'i, bo'g'iz og'rig'i va bo'g'inlarda og'riqdan shikoyat qiladi. Shuningdek, u holsizlik, quruq yo'tal va burun tiqilishi borligini aytadi.

Ko'rikda:

- Tana harorati 39°C
- Teri qizil
- Limfa tugunlari kichik, og'riqsiz
- O'pka va yurak tekshiruvda og'riq yo'q

Savollar:

1. Taxminiy tashxis nima?
2. Kasallik qo'zg'atuvchisi nima?
3. Yuqish yo'li qanday?
4. Asoratlari qanday bo'lishi mumkin?
5. Davolash tamoyillari qanday?

2.masala:

6 yoshli bola 3 kundan beri tomoq og'rig'i, isitma ($37,8-38,5^{\circ}\text{C}$), bo'g'izda noqulaylik va ovqat yeyayotganda og'riqdan shikoyat qiladi. Onasining aytishicha, bola so'lak ajratishi kamaygan va holsiz.

Ko'rikda:

- Tonsillalar va faringeal sohada qalin oq-sariq qoplama (pseudomembrana)
- Boyun limfa tugunlari kattalashgan, "boyun yo'ldoshlari" shaklida
- Puls 110/min
- Tana harorati 38°C

Savollar:

1. Taxminiy tashxis nima?
2. Kasallik qo'zg'atuvchisi nima?
3. Yuqish yo'li qanday?
4. Asoratlari qanday bo'lishi mumkin?
5. Davolash tamoyillari qanday?

Bilet №7

1.masala:

28 yoshli erkak 5 kundan beri siyish paytida yonish va achishishdan shikoyat qiladi. Siydik tez-tez keladi, lekin oz miqdorda. Shuningdek, siyish oxirida suyuq, pusli ajralma bor. Bemor jinsiy faol, so'nggi oy ichida yangi jinsiy sherik bilan aloqa qilgan.

Ko'rikda:

- Tashqi jinsiy a'zolar qizargan, shilliq pardalar biroz shishgan
- Tashqi chiqindilar: pusli oqsilaj
- Limfa tugunlari og'riqsiz, kattalashmagan
- Tana harorati normal

Savollar:

1. Taxminiy tashxis nima?
2. Kasallik qo'zg'atuvchisi nima?
3. Yuqish yo'li qanday?
4. Asoratlari qanday bo'lishi mumkin?
5. Davolash tamoyillari qanday?

2.masala:

30 yoshli erkak tropik mintaqadan (O'rta Osiyo yoki Shimoliy Afrika) qaytganidan so'ng 3 oy davomida bo'yin va yuz hududida o'sib borayotgan yara va shishlardan shikoyat qiladi. Yara asta-sekin ochilib, qizaradi va terlaydi. Tana harorati 37–37,5°C.

Ko'rikda:

- Yuzda va qo'lning ochiq qismlarida bir nechta ochiq yaralar (ulardan bir nechtasi quruq qobiq bilan qoplangan)
- Limfa tugunlari biroz kattalashgan, og'riqsiz
- Umumiy holati o'rtacha

Savollar:

1. Taxminiy tashxis nima?
2. Kasallik qo'zg'atuvchisi nima?
3. Yuqish yo'li qanday?
4. Asoratlari qanday bo'lishi mumkin?
5. Davolash tamoyillari qanday?

Bilet №8

1.masala:

6 yoshli qiz bola 3 kundan beri tana harorati $37,5-38^{\circ}\text{C}$ gacha ko'tarilgan, yuz va bo'yin hududida dog'lar paydo bo'lgan. Onasining aytishicha, bola uy maktabga borganda o'tkir isitma bo'lmagan, ammo terida qizil dog'lar tarqalgan. Bolada yengil tomoq og'rig'i va limfa tugunlarining biroz kattalashishi kuzatilgan.

Ko'rikda:

- Tana va yuz terisida kichik qizil dog'lar birlashib tarqalgan
- Bo'yin va quloq osti limfa tugunlari kattalashgan, og'riqsiz
- Tana harorati $37,8^{\circ}\text{C}$
- Bolaning umumiy holati o'rtacha

Savollar:

1. Taxminiy tashxis nima?
2. Kasallik qo'zg'atuvchisi nima?
3. Yuqish yo'li qanday?
4. Asoratlari qanday bo'lishi mumkin?
5. Davolash tamoyillari qanday?

2.masala:

7 yoshli bola 2 kundan beri yuqori harorat ($38,5-39^{\circ}\text{C}$), bo'g'iz og'rig'i va bosh aylanishidan shikoyat qiladi. Onasining aytishicha, bolada ovqat yeyayotganda og'riq va yallig'lanish kuzatilgan.

Ko'rikda:

- Tana terisida qizil dog'lar paydo bo'lgan, ayniqsa bo'yin, ko'krak va qorin hududida kichik tikuvdog'lar ko'rinishida tarqalgan
- "Malina tili" (til qizarib, mayda yumshoq dog'lar bilan qoplangan)
- Tonsillalar kattalashgan, oq qoplama mavjud
- Limfa tugunlari biroz kattalashgan
- Tana harorati $38,8^{\circ}\text{C}$

Savollar:

1. Taxminiy tashxis nima?
2. Kasallik qo'zg'atuvchisi nima?

3. Yuqish yo‘li qanday?
4. Asoratlari qanday bo‘lishi mumkin?
5. Davolash tamoyillari qanday?

Bilet №9

1.masala:

5 yoshli bola 3 kundan beri isitma ($37,5-38,5^{\circ}\text{C}$), holsizlik va bosh og‘rig‘idan shikoyat qiladi. So‘nggi 24 soat ichida terisida qizil dog‘lar paydo bo‘lib, ular tez orada suv bilan to‘la pufakchalarga aylanmoqda. Bola uy maktabga borganda bir necha sinfdoshida ham shunga o‘xshash belgilar kuzatilgan.

Ko‘rikda:

- Tana terisida, bosh va yuzda kichik qizil dog‘lar, ularning ustida pufakchalar (vesikulalar) mavjud
- Dog‘lar quruq va shifo topayotgan markaziy qismlari bilan turlicha bosqichda
- Tana harorati 38°C
- Bolaning umumiy holati o‘rtacha

Savollar:

1. Taxminiy tashxis nima?
2. Kasallik qo‘zg‘atuvchisi nima?
3. Yuqish yo‘li qanday?
4. Asoratlari qanday bo‘lishi mumkin?
5. Davolash tamoyillari qanday?

2.masala:

25 yoshli erkak bemor 3 hafta oldin it chaqishi haqida xabar beradi. Chaqqan joyni toza suv bilan yuvgan, lekin hech qanday vaksina olmagan. So‘nggi kunlarda u holsizlik, bosh og‘rig‘i, isitma va qorin og‘rig‘idan shikoyat qiladi. Keyinchalik suv yoki shamollatish hissi bilan nafas olish va yutish qiyinlashadi, uyqu buziladi, ba‘zan g‘azablanish va bezovtalik kuzatiladi.

Ko‘rikda:

- Tana harorati 38°C
- Nafas olish tezligi oshgan, bo‘g‘ilish belgisi mavjud
- Xavotir va bezovtalik
- Qattiq og‘riq yo‘qligi, lekin chaqilgan joy sezuvchan

Savollar:

1. Taxminiy tashxis nima?
2. Kasallik qo‘zg‘atuvchisi nima?

3. Yuqish yo‘li qanday?
4. Asoratlari qanday bo‘lishi mumkin?
5. Davolash tamoyillari qanday?

Bilet №10

1.masala:

8 yoshli o‘quvchi bola bosh qismi qichishishdan shikoyat qiladi, ayniqsa kechasi uyqu vaqtida. Onasining aytishicha, bolada bosh terisida mayda oq tuxumlar (nits) va harakatlanayotgan kichik hasharotlar ko‘rinadi. Bola maktabda do‘stlari bilan yaqin aloqada bo‘ladi.

Ko‘rikda:

- Soch ildizida va bosh terisida tuxumlar (nits) va tirik qurtlar (pedikuly) mavjud
- Terida yengil qizil dog‘lar va qichishishdan shikastlanishlar
- Tana harorati normal
- Bolaning umumiy holati yaxshi

Savollar:

1. Taxminiy tashxis nima?
2. Kasallik qo‘zg‘atuvchisi nima?
3. Yuqish yo‘li qanday?
4. Asoratlari qanday bo‘lishi mumkin?
5. Davolash tamoyillari qanday?

2.masala:

6 yoshli bola oshxonada issiq suv tushib, qo‘l va qo‘l barmoqlarini kuydirgan. Bemor darhol onasi tomonidan sovuq suv ostida yuvilgan, ammo erta simptomlar: kuchli og‘riq, terining qizarishi va pufakchalar paydo bo‘lishi.

Ko‘rikda:

- Qo‘lning orqa va palma tomonida 2–3 sm² hududda teri qizarib, pufakchalar (blisterlar) bilan qoplangan
- Yallig‘lanish atrofida shish va og‘riq bor
- Tana harorati normal
- Bolaning umumiy holati og‘ir emas

Savollar:

1. Taxminiy tashxis nima?
2. Kuyish darajasi qanday?
3. Asoratlari qanday bo‘lishi mumkin?
4. Davolash tamoyillari qanday?
5. Profilaktika choralari qanday?

O'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlar malakasini oshirish va ixtisoslashtirish Respublika Markazi Andijon filiali o'qituvchisi N.A.Qo'chqarovaning « Yuqumli kasalliklarda hamshiralik ishi » yo'nalishi bo'yicha malaka oshirish guruhlar uchun tuzgan ishchi o'quv dasturiga

Taqriz.

O'zbekiston Respublikasida o'rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish, tibbiyot muassasalarida o'rta tibbiyot xodimlari ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan.

Ishchi dasturi modul tizimi asosida ishlab chiqilgan bo'lib, o'quv fanning mazmuni, uni o'zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e'tiborga olingan. Ishchi dasturi "Yuqumli kasalliklarda hamshiralik ishi" yo'nalishining o'quv rejasi asosida tayyorlangan bo'lib, o'rta tibbiyot xodimlarini 144 kredit malaka oshirishlari uchun mo'ljallangan.

O'qish natijasida "Yuqumli kasalliklarda hamshiralik ishi" bo'yicha юқумли касалликлар bo'limi hamshirasining mavjud kompetensiyalarni takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va kasbiy darajasini oshirish. O'rta tibbiyot xodimlarni har tomonlama yetuk, mutaxassisliklari bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga erishish, shu bilan bir qatorda ularga hamshiralik ishi mohiyati, uning sog'liqni saqlash tizimidagi o'ziga xosligi, normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlash, yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga erishish, malakali tibbiy yordam ko'rsatish samaradorligini ko'tarish, aholiga sifatli va malakali tibbiy xizmat ko'rsatishni chuqurlashtirish va yangi zamonaviy davolash metodlarini qo'llash. Shu bilan bir qatorda ularga ishining mohiyati, normativ- huquqiy hujjatlar bilan ishlash, aholiga sifatli yordamni ko'rsatish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

RID va KIATMAF
vrach dermatovenerolog:



Islamova Z.Sh

O'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlar malakasini oshirish va ixtisoslashtirish
Respublika Markazi Andijon filiali o'qituvchisi N.A.Qo'chqarovaning «Yuqumli
kasalliklarda hamshiralik ishi» yo'nalishi bo'yicha malaka oshirish guruhlari uchun
tuzgan ishchi o'quv dasturiga

Taqriz.

Mazkur o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi
"Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-
tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 4310-son va 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya
sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi
tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarorlari,
O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-
sonli "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish
tizimini tashkil etish bo'yicha meyoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish
to'g'risidagi" buyrug'i, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining
2024 yil 28 oktabr 333-sonli "O'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining
malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo'yiladigan Davlat talablari" ijrosini
ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Ishchi dasturda o'quv fanning mazmuni, uni o'zlashtirish shakli va usullari
mujassamlashtirilgan. Ishchi dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy
ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e'tiborga
olingan. "Yuqumli kasalliklarda hamshiralik ishi" ishchi o'quv dasturi
yo'nalishining o'quv rejasida tayyorlangan bo'lib, hamshiralarni 144 kredit
malaka oshirishlari uchun mo'ljallangan. Ishchi dasturda fanlar modullarga
ajratilgan bo'lib, kasbiy rivojlanish moduli ma'naviy va siyosiy dunyoqarashlarini
kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimidagi
islohatlar, tibbiyot sohasining ilm – fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari
va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to'g'risida ma'lumotlar kiritilib, tibbiy
ta'limda uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo'limlarni ketma-ketligini
ta'minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan
o'quv materiallarini qamrab olgan.

Mazkur ishchi dasturni o'zlashtirishga tavsiya etilgan soatlar hajmi jami:
144 soatdan iborat bo'lib, bundan 104 soati mutaxassislik faniga, undan 44soati
nazariy va 60 soati amaliy darslarga ajratilgan.

ADTI Yuqumli kasalliklar kafedrasini mudiri T.F.N Dotsent:

